



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz



MUNOSABAT

Bugun yurtimizda yoshlarning o'z iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun misli ko'rilmagan keng imkoniyatlar eshigi ochildi.

Qaysi sohani olmaylik, unda "Oltin avlod"ning ovozi, nafari va yangicha tafakkuri sezilib turibdi. Oliy ta'limga qamrovning bir necha barobarga oshishi, zamonaviy Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar tizimining yaratilishi yoshlarning intellektual poydevorini tubdan yangiladi. Raqamli iqtisodiyot, startaplar va sun'iy intellekt sohalari yoshlarning eng sevimli maydoniga aylandi. IT-parklar orqali minglab yigit-qizlar uyda o'tirib dunyo bozoriga chiqmoqda, yuqori daromadli ish o'rinlariga ega bo'lmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan kuni kecha o'tkazgan ochiq, samimiy va qizg'in muloqotda har bir taklifni tinglab, yoshlarning tashabbuslarini zudlik bilan qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi imkoniyatlar, moliyaviy rag'batlar va loyihalarni e'lon qildi. Bu ishonch yoshlar uchun nafaqat sharaf, balki ular zimmasiga ulkan mas'uliyat ham yuklaydi. Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini qurish vazifasi aynan mana shu shijoatli va zamonaviy bilimlarni egallagan avlodning ham yelkasiadir.

22 milliondan ziyod yoshlar juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchdir. Bugungi O'zbekiston aholisi-ning qariyb uchdan ikki qismini tashkil etuvchi qatlam mamlakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, uning kelajakdagi taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Shu sababli, barcha darajadagi rahbarlarning asosiy vazifasi – har bir



YANGI DAVR DARVOZASI

yigit-qizni til va kasb-hunarga o'rgatish, sportga jalb etish, ularning g'oya, loyiha hamda startaplarini qo'llab-quvvatlash, ishli va daromadli qilish orqali ko'maklashishdir.

Ochiq muloqotning konseptual g'oyasi shundan iboratki, yoshlar – mamlakatning eng katta iqtisodiy, ijtimoiy va intellektual kapitalidir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: **"Endi davlatlar hududi bilan emas, bilimi bilan, aholi soni bilan emas, texnologiyasi bilan, tabiiy boyliklari bilan emas, inson kapitali**

bilan raqobatga kirishmoqda". Shu ma'noda, jahon bozori va ilm-fani bilan integratsiyalashish uchun xorijiy tillarni intensiv o'rganayotgan yigit-qizlar soni 3,5 million nafarga yetdi. Iqtidorli o'quvchi va talabalarimiz nufuzli fan olimpiadalarida 434 ta, yosh sportchilarimiz esa xalqaro musobaqalarda 2 ming 245 ta medalni qo'lga kiritib, Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tardilar.

Prezidentimiz uchrashuvda yoshlarning hayotda munosib o'rin topishi va jamiyatda o'z kuchiga ishongan

holda qadam bosishi uchun bilim, kasb va zamonaviy texnologiyani eng muhim uch ustun sifatida ko'rsatdi. Ushbu maqsadni hayotga tatbiq etish uchun mamlakatimizda mutlaqo yangi tizim – "Kelajak bilimlari ekotizimi" yo'lga qo'yilmoqda. Mazkur dastur doirasida har yili 500 ming nafar o'g'il-qiz zamonaviy, yuqori daromad keltiradigan kasblarga o'qitiladi. Bunda davlat o'quv markazlarini tashkil etish istagida bo'lgan yosh tashabbuskorlarga mislsiz imtiyozlarni taqdim etadi.

(Davomi 2-sahifada.) ➔



AVVAL IQTISOD

ISLOM MOLIIYASI:

ZARURATMI YO IMKONIYAT?

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, akademik
Nurislom TO'XLIYEV bilan suhbat



– Domla, yaqinda O'zbekistonda islom banklari faoliyati to'g'risida qonun qabul qilindi. Siz iqtisodchi olim sifatida bu voqeani qanday baholaysiz?

– Bu, shubhasiz, mamlakat moliya tizimidagi muhim voqealardan biri. Men bu qonunni faqat diniy yoki axloqiy nuqtayi nazardan emas, sof iqtisodiy mantiq jihatidan ham dolzarb, deb bilaman. Qonunga muvofiq, islomiy moliya xizmatlari ikki turda – to'liq islom moliyasi tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi banklar va tijorat banklardagi "islom" darchalari orqali ko'rsatiladi. Muzoraba, vakala, murobaha, salam, mushoraka va islomiy ijara bo'yicha olti turdagi xizmatlar ko'rsatilishi mumkin. Albatta, bu jarayonda, oddiy banking xizmati bilan chegaralanmasdan, takoful va sukuk bozoriga kirib borishni nazarda tutish lozim.

(Davomi 3-sahifada.) ➔



BUGUNNING SHE'RI

Nozima HABIBULLAYEVA

Burg'u

Vatan sha'ni uchun kurashsang, to'ram,
Kaftimni qo'yaman bosar izingga.
Sidirg'a do'ppilar tikkandan ko'ra,
Kamon tutqazaman erka qizingga.
O'zim tozalayman sovutlaringni,
O'zim sug'oraman tulporingni ham.
Kiprigimda tarab movutlaringni,
Jonim-la tikaman tumoringni ham.
Sandiqqa yig'gancha xayollarimni,
Nayza o'stiraman guldonlarimda.
Paytava qilaman ro'mollarimni,
Chilla bag'ishlayman

chiltonlaringga.

Vatan sha'ni uchun kurashsang, to'ram,
Xanjaring damida o'ynasin baror.
Elning ko'kayiga bitilgan jur'at –
Temir bilagingda qaynagan qaror.
Sovuq qurollarning kukunlarini
Qon yuvgan kechaning sadolarimiz.
Gul unib ruhining kuyuklaridan
Qabrda tinch yotsin bobolarimiz.

Vatan sha'ni uchun kurashgil, to'ram!



TARIXDAN SADO



Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida 1926-yilda bo'lib o'tgan Turkiyot qurultoyining 100 yilligi nishonlanmoqda. Shu munosabat bilan xalqaro kongress qatnashchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tabrik yo'lladi. Bunday tubli e'tiborning o'z sabablari bor, albatta. Zero, turkiy olamning barcha sohada o'zaro mushtarak faoliyat olib borish zarurati yuz yil avvalgi ayni anjuman doirasida chuqur muhokama qilingan edi.

(Davomi 7-sahifada.) ➔



E'TIROF

JADIDLARDAN MEROS QALAM

"Jadid" gazetasi tahririyati "Oltin qalam" XX Milliy mukofoti xalqaro tanlovida "Eng yaxshi jurnalistik material uchun (bosma nashrlar)" yo'nalishida 1-o'ringa loyiq ko'rildi. Mukofot "O'zbekiston" Xalqaro anjumanlar saroyida Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan o'tkazilgan marosimda barcha g'olib va sovrindorlar qatori tantanali topshirildi.

(Davomi 4-sahifada.) ➔



SAN'AT OLAMI

EZGULIK CHECHAKLARI

"Diydor" teatr-studiyasi rahbari,
"Do'stlik" ordeni sohibi
Bobur YO'LDOSHEV bilan suhbat

– "Biz, aktyorlar – dorbozlarmiz. Kinoda arqon yerga chizilgan bo'ladi, shu bois, xato qilishdan qo'rqmaysiz. Ammo teatrdan bu arqon bir necha o'n metr balandlikda tortiladi. Xavfsizlik kafolati haqida gap bo'lishi mumkin emas. Sahnada yolg'iz qolasiz", degan edi mashhur kinoyulduzi Al Pachino. San'atning har ikki turida ham ko'p yillardan buyon teng ijod qilasiz. O'rtadagi tafovut nimalarda ko'rinadi?

(Davomi 5-sahifada.) ➔



ZULFIQOR TUTGAN ALI

Ali Rasulov ham til bilgani, ham iqtisodni chuqur anglagani uchun uning qo'lida go'yoki ikki damli qilich bo'lmish zulfiqor yaraqlab turardi. Ana shu narsa bosqinchilarni cho'chitdi. Bilimni tortib olishning iloji yo'qligi uchun uning sohibiga pand berdilar. Afsuski, jaholat avj olgan tuzum va zamonda inson hayotining pista po'chog'icha qadri yo'q edi.



(7-sahifada o'qing.) ➔



YANGI DAVR DARVOZASI

Boshlanishi 1-sahifada.

Masalan, yer maydonlari va bo'sh turgan davlat obyektlari imtiyozli shartlarda ajratiladi, markazlar uchun zarur bo'lgan barcha infratuzilma davlat hisobidan yaratiladi, zamonaviy o'quv markazlarini qurish va jihozlash uchun banklardan olinadigan kredit stavkalarining bir qismi davlat tomonidan kompensatsiya qilib beriladi.

Qo'lida kasbi bor, lekin dunyo bozorida o'zgarishlar fonida yangi ko'nikmalarni, xususan, IT, raqamli texnologiyalar yoki yashil energetika sohalarini egallamoqchi bo'lgan yoshlar uchun yangi inqilobiy qadam sifatida "kasb vaucheri" tizimi joriy etilmoqda. Har yili 50 ming nafar yoshning zamonaviy kasblarni mustaqil va sifatli o'rganishi uchun xarajatlar davlat tomonidan foizsiz ssuda hisobidan to'liq qoplab beriladi. Og'ir ahvoldagi, ehtiyojmand oilalarning farzandi bo'lgan va hozirda ishsiz turgan 85 ming nafar yigit-qizga xususiy o'quv markazlarida istalgan kasbni egallashi uchun bepul vauchەرlar taqdim etiladi. Shu yilning o'zida ushbu yangi tizimning samarali faoliyatini boshlash uchun davlat byudjetidan maqsadli ravishda 120 milliard so'm ajratildi.

Yaratilayotgan imkoniyatlar, sharoitlar O'zbekiston yoshlar siyosatida yangi davr boshlanganini ko'rsatadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy va intellektual sog'lomligini ta'minlashga qaratilgan. "Kelajak bilimlari ekotizimi" va "kasb vaucheri" tizimining joriy etilishi – yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratadigan, bilimlar iqtisodiyotini boshqara oladigan yangi inson kapitalini tarbiyalash yo'lidagi ulug'vor qadamdir. Zero, o'z bilimiga, zamonaviy kasbiga va Vataniga sodiq bo'lgan yoshlik – kuchli, yengilmas va farovon davlatning eng oliy kafolatidir.

Shu ma'noda, yoshlarning salohiyatidan mamlakat rivoji va xalqaro obro'sini oshirish yo'lidagi foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, xorijiy tillarni mukammal biladigan 650 mingdan ziyod yoshlar salohiyatidan mamlakatning boy tarixi, madaniy merosi, turizm va eksport imkoniyatlarini xalqaro maydonda targ'ib qilishda foydalanish uchun ishga tushirilib, har yili 20 milliard so'mdan ajratiladi. Yetakchi xorijiy oliygohlarda o'qiyotgan 14 mingdan ortiq yigit-

qizning ta'til davrida yurtimizdagi vazirlik, hokimlik, davlat va xususiy kompaniyalarda amaliyot va stajirovka o'tashi uchun raqamli muloqot platformasi ishga tushiriladi. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali yoshlarni xususiy sektor buyurtmasi asosida ham nufuzli xorijiy oliygohlarda o'qitish imkoniyati yaratiladi. Davlat boshqaruvida yoshlarga ishonchni kuchaytirish maqsadida 5 ta yo'nalishda "TOP-100" dasturi amalga oshirilib, g'oliblar rahbarlik lavozimlariga tavsiya etiladi. Har yili 2 ming nafar iqtidorli yoshni xalqaro tashkilotlarga amaliyotga yuborish rejasi ishlab chiqiladi. Ayni paytda yoshlarni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb etish uchun yangi rag'batlar joriy etilayotgani ham e'tiborga molik. Olaylik, oliygoh bitiruvchisini ishga olgan tadbirkorlar uchun yosh mutaxassisga nisbatan daromad va ijtimoiy soliq bir yil davomida 1 foiz etib belgilanadi.

Bu 200 mingga yaqin bitiruvchini ishga joylashtirish uchun muhim omil bo'ladi. "Kafolatlangan birinchi qadam" paketi esa otana qaramog'idan mahrum bo'lgan, harbiy xizmat, migratsiya va jazoni o'tab qaytgan, jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni

qo'llab-quvvatlash uchun joriy etiladi. "Ustoz – talaba" dasturi asosida uyushmagan yoshlarga ko'maklashgan talabalar ham rag'batlantiriladi. Mahalliy brendlar franshizasini oladigan yigit-qizlarga Yoshlar tadbirkorligi jamg'armasidan 300 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratiladi. Mazkur dasturlar uchun 500 milliard so'm yo'naltiriladi. Yoshlar xabarlari esa kasb va til o'rganish, ishga joylashish, tadbirkorlik bo'yicha xizmatlardan "yagona darcha" tamoyili asosida foydalanish imkonini beradi.

O'zbekiston iqtisodiyot hajmini 2030-yilgacha 240 milliard dollardan oshirishni rejalashtirgan. Maqsadga erishishda innovatsion startaplar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir vazir, tarmoq rahbari va hokim "1 mingta masalaga – yoshlardan 1 mingta yechim" loyihani ishga tushiradi. Yoshlar ishlari agentligi biznes, AT va kreativ iqtisodiyot yo'nalishidagi 100 ta eng yaxshi loyihaga 1 milliard so'mgacha investitsiya kiritadi. "Raqamli hukumat" markazida birinchi superkompyuter klasteri ishga tushirildi, kelgusi yil uning quvvati 3 karra oshiriladi. Joriy yilda 20 ta oliygohda sun'iy intellekt laboratoriyalari tashkil etilsa, bundan yoshlar bepul foydalanib,



muammolarga yechimlar ishlab chiqadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan taqdim etilayotgan keng ko'lamli dasturlar va imkoniyatlar Yangi O'zbekiston yoshlarini XXI asrning haqiqiy drayverlariga, global raqobatda o'z o'rniga ega bo'lgan buyuk bunyodkorlarga aylantirishi shubhasizdir. Asosiy masala – mazkur imkoniyatdan foydalana bilishda. Bu yo'lda yoshlar xorijiy tillarni mukammal egallashi jahon axborot va ta'lim maydoniga chiqishning yagona yo'lidir.

Buyuk jadid bobomiz Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida ta'kidlagandek, "Imsiz kishi mevasiz daraxt kabitur". Navnihollar shig'ii samara berishi uchun sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot manbalaridan to'laqonli oziqlanishi shart. Ochiq muloqot Yangi O'zbekiston yoshlari

uchun yangi davr darvozasini ochdi. Bugun yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanish, doimiy izlanish va innovatsiyalarga intilish har bir yigit-qizning bosh maqsadiga aylanishi lozim. Zero, intellektual salohiyati yuqori yoshlar bor yurtda taraqqiyot hech qachon to'xtamaydi. Biroq imkoniyatning mavjudligi o'z-o'zidan natija bermaydi. Undan foydalanish uchun intilish, tashabbus va mehnat talab etiladi. Bu esa yoshlar, talabalar oldiga shaxsiy mas'uliyat masalasini qo'yadi. Bugun orzulari ushlayotgan, bilimi va kasbi bilan dunyoni zabt etayotgan o'zbek yoshlari Vatan suyanchi va iftixoridir. Orqasida doim qo'llab-quvvatlaydigan suyanch tog'i bor yosh avlod hech qachon to'xtamaydi va eng yuksak marralarni zabt etishda davom etadi.

Iqbol MIRZO



MUJDA

YOSHLAR TEATRI

muborak!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 30-iyunida Yoshlar kuni munosabati bilan poytaxtimizdagi Olimpiya shaharchasida o'tkazilgan tantanali marosimda ishtirok etdi. Mazkur tadbirda yosh ijodkorlar oilasi sifatida qatnashish sharafiga muayassar bo'lganimizdan behad mamnunmiz. Sababi, bu tadbirda o'zbek adabiyotining yangi avlod vakillari sifatida mamlakatimizda kecha-yotgan ijodiy yuksalish jarayonlari, yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar uchun muhtaram Prezidentimizga bevosita tashakkur aytish imkoniga ega bo'ldik.

Fevral oyida "Jadid" gazetasi tomonidan amalga oshirgan ijodiy safarimiz davomida hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mavlono Lutfiy, Abu Rayhon Beruniy, Boborahim Mashrab va yana ko'plab allomalarimiz bilan bog'liq muqaddas qadamlarni ziyorat qilishga musharraf bo'lgandik. Shu jarayonda bir turkum tarixiy-publisistik maqolalar va ko'rsatuvlar tayyorlangani ziyrak mushtariylarimizga yaxshi ma'lum. O'shanda daryo ortidagi qardoshlarimizning Prezidentimiz olib borayotgan tinchlikparvar tashqi siyosatni yuksak e'tirof etgani, O'zbekiston tomonidan ko'rsatilayotgan insonparvarlik yordamlari va yaxshi qo'shnihilik siyosati uchun cheksiz minnatdorlik bildirgani, eng muhimi, samimiy salomlarini yetkazish imkoniga ega bo'lganimizni aytmaymizmi?!

Uchrashuv davomida ijodiy safar taassurotlarini o'zida jamlagan "Hirota, bobomning huzuriga!" nomli kitobning ilk nusxasini muhtaram Prezidentimizga yuksak ehtirom ila taqdim etdik. Davlatimiz rahbari kitob nomi xususida iliq fikr bildirib, uning ma'naviy yuki va ramziy mazmuniga alohida to'xtaldi. Bu yuksak e'tirof ajdodlar merosini o'rganish hamda uni keng jamoatchilikka yetkazish yo'lidagi izlanishlarimizni ishonch bilan davom ettirishga undaydi.

Kelgusida ham ajdodlarimizning dunyo bo'ylab sochilib ketgan merosini o'rganish, ular bilan bog'liq



tarixiy manbalar va ziyoratgohlarni keng jamoatchilikka tanitish, hujjatli ko'rsatuvlar, kitoblar va maqolalar orqali bu bebaho ma'naviy merosni yosh avlodga yetkazish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizni izchil davom ettirish niyatidamiz.

Bugungi globallashuv va mafkuraviy kurashlar davrida yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash hamda ularning qalbiga vatanparvarlik g'oyalarini singdirishda she'riyatning o'rni beqiyos. Muloqot davomida ana shu oliy maqsadlarga xizmat qilayotgan, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan amalga oshirilayotgan "So'z" loyihasida mutazam ishtirok etib kelayotganimizni alohida ta'kidlab o'tdik. Zero, mazkur loyiha milliy adabiyotimiz durdonalarini xalqimizga yetkazish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash va yoshlarni kitobxonlikka undashda haqiqiy mayoq vazifasini o'tamoqda.

Yoshlar ishlari agentligining "Mutolaa" loyihasi hamda O'zbekiston Milliy kutubxonasi hamkorligida o'tkazib kelinayotgan teatrlashtirilgan nazm kechalarda ham faol ishtirok etayotganimiz, xususan, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlab, "Ishq adolatdadir!" nomli she'riy-adabiy kechani tashkil etganimizdan ko'pchilik xabardor. Uchrashuv davomida keyingi yillarda keng ommalashayotgan shu kabi ijodiy loyihalar, teatrlashtirilgan she'riy konsertlar orqali milliy adabiyot, musiqa, qadriyatlar va an'analarimizni yoshlar orasida targ'ib etish borasida

amalga oshirilayotgan ishlar xususida fikr yuritdik. Bugungi kunda mazkur loyihalar adabiyot ixlosmandlari, keng jamoatchilikni birlashtirayotgani, axborot oqimi shiddatli bo'lgan davrda she'riyatni sahnaviy ifoda orqali qalblarga yanada ta'sirchan yetkazish imkonini berayotganini alohida ta'kidladik.

So'zimiz yakunida ana shu adabiy konsertlardan bir parcha sifatida, yurt himoyasi yo'lidagi qahramonlarcha halok bo'lgan mard o'g'lonlarimizning o'chmas xotirasiga bag'ishlangan "Vatan sha'ni uchun kurashgil, to'ram" hamda "Bu elning har o'g'li, qizi qahramon" nomli she'rlarni ijro etdik. Muhtaram Prezidentimizning she'riyatga bo'lgan yuksak e'tiborlari va bizga bildirgan samimiy munosabatlari ko'nglimizni tog'dek ko'tarib, yangi ijodiy izlanishlarga undadi.

Ayni shu lahzada uchrashuvning eng unutilmas va tarixiy sahifasiga aylangan voqea sodir bo'ldi. Davlatimiz rahbari buyuk adib Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi mashhur iborani eslab, "Bu dargohdan hech kim norizo bo'lib ketmasligi kerak", deb lutf qildi. Yosh ijodkorlarning keyingi yillarda adabiyot va san'at kabi bir qator sohalarda erishayotgan yutuqlari, jumladan, she'riyatni keng ommaga zamonaviy va ta'sirchan shakllarda yetkazishga qaratilgan ijodiy loyihalarini yuksak baholab, mamlakatimizda Yoshlar teatrlari tashkil etish yuzasidan tarixiy topshiriq berdi. Shu bilan birga, mazkur teatr faoliyatiga rahbarlik qilish mas'uliyati zimmamizga yuklanishini ma'lum qildi.

Prezidentimiz topshirig'iga muvofiq, tashkil etiladigan teatrlar konsepsiyasi, ijodiy yo'nalishlari, repertuari va dasturini ishlab chiqish vazifasi tegishli davlat tashkilotlariga yuklatildi. Ushbu teatrlarning asosiy maqsadi she'riyat, badiiy so'z va teatr san'atini o'zaro uyg'unlashtirgan holda, milliy adabiyotimizning eng sara namunalari sahnaga olib chiqish, yosh iste'dodlarni kashf etish va ularni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotning zamonaviy va ta'sirchan shakllarini yanada rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Biz bu ishonchni Vatan va xalq oldidagi yuksak mas'uliyat sifatida qabul qilamiz hamda muhtaram Prezidentimiz belgilab bergan vazifalarni munosib ado etish, mamlakatimizda she'riyat va teatr san'atining yangi bosqichini shakllantirish yo'lidagi bor kuch va salohiyatimizni safarbar etamiz..

Shahriyor SHAVKAT,
"Kelajak bunyodkori"
medali sohibi

Nozima HABIBULLAYEVA,
Zulfiya nomidagi davlat mukofoti
sovrindori



TADQIQ

DIQQAT!

PARVOZDA

"LOCHIN"!

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-iyun kuni Olimpiya shaharchasida Yoshlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan maxsus ko'rgazmada mamlakatimizning faol va izlanuvchan yoshlari bilan uchrashdi. Davlatimiz rahbari ularning qator sohalardagi loyihalarini bilan tanishdi, tashabbuskorlar bilan shaxsan muloqot qildi.

Bundan avvalroq, yil boshida Davlatimiz rahbari koinotga sun'iy yo'ldosh uchirish hamda birinchi o'zbek fazogirini tayyorlash bo'yicha dastlabki ishlar taqdimoti bilan tanishgan edi. Taqdimotda 2028-yilda "Mirzo Ulug'bek" nomli 6U formatdagi ilmiy sun'iy yo'ldoshni uchirish taklif qilingan, mutaxassislarini tayyorlash va muhandislik jamoasini shakllantirish ham nazarda tutilgandi.

Bu e'tibordan ilhomlangan iqtidorli yoshlar ham samarali tajribalarga qo'l uryapti. Joriy yil 29-iyun kuni O'zbekiston tarixida birinchi marta oliy o'quv yurti talabalari tomonidan yaratilgan stratosfera zondi – "Lochin-1" Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq hududidan uchirildi hamda 41,3 kilometr balandlikka ko'tarildi. Maqsad: stratosferaning noyob atmosfera sharoitlarini o'rganish, O'zbekiston hududini koinot fonida o'ta yuqori aniqlikda tasvirga olish hamda talabalarning ilmiy-tadqiqot va muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirish. Mutaxassislar fikriga ko'ra, parvoz amaliyoti rejaga asosan to'la muvaffaqiyatli yakunlandi.

Bu loyiha Buxoro innovatsiyalar universitetining izlanuvchan tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirildi. Unga mazkur oliy o'quv yurti o'qituvchisi, yosh olim Umidjon Rustamov rahbarlik qildi.

– "Lochin-1" loyihasini rektorimiz, pedagogika fanlari doktori, professor Dilnoz Ro'ziyevaga taqdimot qilganimizda bizga ishonch bildirdi. To'liq



moliyalashtirishni o'z zimmasiga oldi. Biz ham do'stlarimiz bilan muvaffaqiyatli parvoz uchun harakat qildik. Nihoyat, zondimiz Ozon qatlamining asosiy qismidan yuqoriga chiqqan, deydi jamoa a'zosi Olimjon Isomjonov hayajon bilan. – Eng qiyini zond qo'ngach boshlandi. Qurilma start nuqtasidan 144 chaqirim uzoqlikka, cho'lga tushdi. Yo'lsiz biyobonda qidiruv tizimlari orqali yigirgma soatdan ko'proq vaqt sarflab, tadqiqot uskunamizni topdik. Muhimi: zondga shikast yetmagan – kameralar, sensorlar, yozib olingan barcha ma'lumotlar saqlangan. Natija oldida barcha mashaqqatlar unutilib ketdi. Endi keyingi qadamni qo'ysak bo'ladi. Navbat olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va "Lochin-2" missiyasini boshlash.

Buxorolik yoshlarning harakatida oltin-fanga kirib kelayotgan Yangi O'zbekistonning iltim avlodiga xos qat'iylilik, jadid bobolarimiz orzu qilgan darajaga erishish va ilmu tafakkur mujassam.

Bu kabi loyihalar bardavom bo'lishiga va mamlakatimizda quloch yoyib, samoni ko'zlagan talabalarimizga qanot bo'lishiga tilakdoshmiz.

Jamoliddin BADALOV





ISLOM MOLIIYASI: ZARURATMI YO IMKONIYAT?

Boshlanishi 1-sahifada.

– Islom banklari, aslida, an’anaviy banklardan ko’pam farq qilmaydi, deb hisoblaydiganlar ham yo’q emas. Bu borada nima deysiz?

– Darhaqiqat, yakuniy moliyaviy natija nuqtayi nazaridan bu ikki tizim o’xshash ko’rinadi. Lekin iqtisodiy mohiyati jihatidan farqi katta. An’anaviy bankda pul – mahsulot (tovar), foiz – uning narxi. Islom banklarida esa pul vosita, xolos, asl obyekt – real aktiv. Bu faqat nazariy emas, balki xatarlar taqsimlanishi, balansning tuzilishi va iqtisodiy muvozanatga ta’siri nuqtayi nazaridan juda jiddiy amaliy farqdir.

Dunyo amaliyotida, ayniqsa, ayrim mamlakatlarda, islom banklari qobig’i saqlanib, mazmun-mohiyati yo’qolgan holatlar kuzatilgan va kuzatilmoqda. Buni ham ochiq aytish kerak. Bunda asosiy himoya vositasi – mustaqil va vakolatli Kuzatuv kengashlaridir. Ular faqat nomiga emas, amalda huquqiy vakolatga ega bo’lishi, mahsulot (xizmat)larni chuqur tekshirishi va bozor ishtirokchilariga hisobot berishi kerak. Islom banklari nufuzi boshidan to’g’ri shakllansa, xatolarni tuzatish oson bo’ladi. Boshidan noto’g’ri ketsa, ishonch tiklanmaydi.

– Islom banklarining O’zbekiston iqtisodiyotiga qanday aniq foydasi bor?

– Men bu borada uchta asosiy yo’nalishni ko’raman.

Birinchisi, investitsion imkoniyatlar. Islom moliyasi bozorlari, xususan, Ko’rfaz mamlakatlari, Malayziya jahonning eng yirik likvidlik manbalaridan biri. Markaziy bank ma’lumotlariga ko’ra, xorijiy investorlarning O’zbekiston moliya bozoriga kirishga qiziqishi katta. Natijada mamlakat bank tizimiga 1 milliard dollar miqdorida investitsiya kiritilishi mumkin. Biz ularning tajribasi va pullarini sarmoya sifatida jalb qilishimiz kerak.

Ikkinchi jihat aholini bank-moliya tizimiga faol jalb qilish bilan bog’liq. O’zbekistonda hali ham aholining katta qismi bank xizmatlaridan chetda. Islom banklari ularni jalb qilish uchun muhim vosita bo’lishi mumkin.

Uchinchisi – raqobat. Islom bank tizimi bilan bir qatorda, an’anaviy banklar ham xizmat sifatini yaxshilashga majbur bo’ladi. Bu esa umumiy tizim uchun foydalidir.

– Siz uzoq yillar mamlakat iqtisodiyotini ichidan kuzatib kelyapsiz. Islom bank faoliyati bo’yicha qonun “pishib yetilgan” paytda qabul qilindimi yoki biroz kechga qoldikmi, nima deb o’ylaysiz?

– Iqtisodiyotda “vaziyat yetilishi” uchun odatda uchta omil kerak: siyosiy iroda, bozor talabi va institutsional tayyorgarlik. O’zbekistonda bugun shu uch omil bor.

Siyosiy iroda – davlat investitsiya iqlimini yaxshilash, islom kapitalini jalb qilish strategiyasida islom banklari faoliyatini tashkil qilish haqida aniq yozilgan. Yangidan ishlab chiqilgan 2026–2030-yillarga mo’ljallangan “O’zbekiston-2030” strategiyasida islomiy moliyaning huquqiy asoslarini yaratgan holda, uchta tijorat bankida islomiy moliya xizmatining yo’lga qo’yilishi belgilangan.

Bozor talabi – mikromoliya sohasida islom moliyasi mahsulotlariga katta qiziqish kuzatilmoqda. Islom moliyasi tamoyillariga muvofiq bo’lgan moliyalashtirish hajmi oshib bormoqda. Birgina 2026-yilning o’tgan davri mobaynida mikromoliya tashkilotlari tomonidan

ko’rsatilgan islomiy moliyalashtirish hajmi 11,2 milliard so’zni tashkil etgan. Ko’rsatilgan xizmatlarning asosiy qismi – 70 foizga yaqinini murobaha bitimlari, 19 foizini muzoraba va 12 foizini islomiy ijara tashkil etadi. Ular orasida jismoniy va yuridik shaxslar mavjud, Toshkent shahri va Namangan viloyati faol.

Institutsional tayyorgarlik – Markaziy bank bir necha yil davomida tayyorgarlik ishlarini olib bordi, me’yoriy baza yaratildi. Shuning uchun bu qonun tasodifiy yoki kech emas, o’z vaqtida qabul qilingan, deb o’ylayman.

Qonun – bu faqat ruxsat: u nima qilish va nima qilmaslik kerakligini belgilab beradi. Asosiy ish endi boshlanadi: malakali xodim-mutaxassislar tayyorlash, maxsus kuzatuv kengashlarini tashkil etish, audit tizimini yo’lga qo’yish, tadbirkorlar va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va boshqa vazifalar bor.

Iqtisodchi sifatida, birinchi navbatda mutaxassislar tayyorlash masalasiga e’tibor qaratish kerak, deb o’ylayman. Bugun mamlakatimizda shariat va moliyani bir vaqtda chuqur biladigan mutaxassislar soni kam. Shu bo’shliqni tezda to’ldirmasak, qonun yaxshi bo’lsa ham, amaliyot qiyin kechishi mumkin. To’g’ri, hozir O’zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi islom iqtisodiyoti va moliyasi sohasida malakali kadrlar tayyorlash hamda moliyaviy savodxonlik borasida mamlakatimizda tayanch oliygoh sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu yerda boshqa ta’lim yo’nalishi bilan bir qatorda, islom iqtisodiyoti va moliyasi yo’nalishida bakalavriat va magistratura bosqichlarida kadrlar tayyorlanmoqda, dasturlar, darsliklar va o’quv qo’llanmalari yaratilmoqda. Lekin bu hali juda kam, albatta.

– O’zbekistonda islom bank-moliya tizimi rivoji oldidagi eng katta to’siq-muammolar qaysilar va ularni qanday hal qilish mumkin?

– Bu yerda uchta asosiy to’siq bor, deb bilaman.

Birinchisi, yuqorida aytganimdek, xodimlar-mutaxassislarning tanqisligi. Islom moliyasi – bu o’ziga xos soha. Islom huquqi va iqtisodiyot-moliya sohasini bir vaqtda bilish talab etadi. Bugun mamlakatimizda shu ikki yo’nalishni chuqur biladigan mutaxassislar kam. Yechimi – oliy o’quv yurtlari va xalqaro tashkilotlar, AAOIFI, IIFM, INCEIF kabi institutlar bilan tizimli hamkorlikni yo’lga qo’yishdir. Malayziya, Bahrayn tajribasini o’rganish, o’zimizda sertifikat dasturlarini ishga tushirish zarur.

Shuni e’tiborga olib, O’zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida davlat granti asosida “O’zbekistonda islom kapital bozorini shakllantirish metodologiyasini yaratish” fundamental loyihasi bajarilmoqda. Loyiha doirasida “O’zbekistonda islom kapital bozorini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari” monografiyasi, “Qur’oni Karimdagi iqtisodiy-moliyaviy masalalarga doir oyatlar” kitobi va “Islom moliyasi” izohli lug’ati shakllantirildi. Bundan tashqari, “O’zbekistonda islom kapital bozorining shakllanishi: tendensiya va tahlillar” monografiyasi nashrga tayyorlandi. Bunday tadqiqot va adabiyotlar qancha ko’p bo’lsa, shuncha yaxshi.

Ikkinchisi moliyaviy savodxonlik muammosidir. Aholining katta qismi islom bank faoliyati haqida yo umuman tasavvurga ega emas yoki noto’g’ri

tushunadi – uni “foizsiz kredit” deb tasavvur qiladi. Mijoz mahsulot mohiyatini tushunmasa, uning imkoniyatlaridan to’g’ri foydalana olmaydi. Bu muammoning yechimi tizimli ma’rifat – ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ta’lim muassasalari orqali maqsadli tushuntirish ishlarini olib borishdir.

Uchinchisi – soliq va huquqiy muhit. Qonun qabul qilindi, lekin ikkilamchi me’yoriy asos hali to’liq shakllanmagan. Xususan, oldi-soldi amaliyotlari ketma-ketligi bilan bog’liq soliq masalalari, mol-mulk reyestri masalalari, Kuzatuv kengashlarining huquqiy maqomi – bular yechimini kutayotgan masalalardir. Bu sohada qonunchilikni tezda takomillashtirish, tartibga soluvchi idoralar va amaliyotchilar o’rtasida doimiy muloqot mexanizmini yo’lga qo’yish zarur.

O’zim ancha yillardan beri talabalarga iqtisodiyotdan saboq berib kelaman, jatribamdand bilaman: eng yaxshi qonun ham, eng yaxshi mahsulot ham, agar odamlar uni tushunmasa, samara bermaydi. Moliyaviy savodxonlik – bu, tizimning “yoqilg’isi”, xolos. U tizimni harakatga keltirish uchun zarur. Men savodxonlikni oshirish ishini kamida uchta qatlamda olib borish kerak, deb hisoblayman.

Birinchi qatlam – ommaviy ma’rifat. Bu yerda asosiy vosita – oddiy til. Islom moliyasini tushuntirishda ko’pincha arabcha atamalar to’siq bo’ladi. Odamlarga avval masalaning mohiyatini tushuntirish kerak, so’ngra atamalarni berish lozim. Bunda televideniye, ijtimoiy tarmoqlar – barcha imkoniyatlardan foydalanish kerak. Ayniqsa, yoshlar uchun qaysi format qulay bo’lsa, o’shani qo’llash yaxshi samara beradi.

Yana bir muhim jihat – ishonch masalasi. Odamlar ma’lumot olishi uchun, avvalo, manbaga ishonishi zarur. Shuning uchun savodxonlik ishini davlat, banklar va mustaqil ekspertlar birgalikda olib borishi muhim. Agar ma’rifat faqat banklardan kelsa, odamlar uni reklama deb qabul qiladi.

Xullas, savodxonlik bir martalik kompaniya emas, uzoq muddatli strategik ish. Bu ishni bugun boshlamasak, ertaga tizim barpo bo’lishi mumkin, lekin uni ishlatadigan ongli mijoz bo’lmaydi.

Ikkinchi qatlam – tadbirkorlar uchun maqsadli ta’lim. Aholi umumiy ma’lumotga muhtoj bo’lsa, tadbirkor amaliy bilimga muhtoj bo’ladi. Unga “Islom moliyasi nima?” emas, “Mening biznesim uchun qaysi mahsulot mos, qanday rasmiylashtiraman, soliq nuqtayi nazaridan qanday bo’ladi?” degan savollarga javob kerak. Shu sababli tadbirkorlar uchun alohida seminar va treninglar, misol va keys-stadilar asosida tuzilgan qo’llanmalar zarur. Tadbirkorlar assotsiatsiyalari, Savdo-sanoat palatasi kabi tashkilotlar bu ishda asosiy hamkor bo’lishi kerak.

Uchinchii qatlam – ta’lim tizimiga integratsiya. Bu – eng uzoq muddatli, lekin eng ta’sirchan yo’l. Agar islom moliyasining asoslari maktab va kollej dasturlariga kirib borsa, o’n yillarda savodli avlod yetishib chiqadi. Iqtisodiyot, tadbirkorlik, huquq fakultetlarida islom moliyasi bo’yicha kurslar joriy qilish nafaqat savodxonlikni, balki soha uchun kadrlar tayyorlashni ham ta’minlaydi.

– O’zbekistonda islom moliyasi faqat bank faoliyati yoki mikromoliya tashkilotlari bilan cheklanib qoladimi yoki boshqa imkoniyatlar ham bormi?

– Juda o’rinli savol. Afsuski, ko’pchilik islom moliyasini faqat islom banklari sifatida ko’radi. Aslida, islom moliyasi ancha keng ekotizim. Bank va mikromoliya bu ekotizimning faqat bir qismi, xolos.

Birinchisi, islom kapital bozori, xususan, sukuk. Sukuk – shariatga muvofiq obligatsiyalardir. Yo’llar, elektr va suv ta’minoti kabi davlat infratuzilma loyihalarini sukuk orqali moliyalashtirish mumkin. Bu byudjetga og’ir-

likni ortmasdan, Ko’rfaz va Malayziya investorlarini jalb qilishning samarali yo’lidir. Ayniqsa, “yashil sukuk” (ekologik loyihalar doirasida) bugun dunyoda juda katta qiziqish uyg’otmoqda.

Ikkinchisi, takaful, ya’ni islom sug’urtasi. Sug’urta bozori O’zbekistonda zaif rivojlangan. Takaful esa an’anaviy sug’urtaga muqobil tizim sifatida katta potensialga ega. O’zaro kafolatlashuv tamoyiliga asoslangan bu tizim aholiga tushunarliroq va qabul qilishga osonroq bo’lishi mumkin.

Uchinchisi, islom investitsiya jamg’armalari (fondlari). Shariatga muvofiq, aksiya fondlari, qo’shma investitsiya fondlari investorlarga halol investitsiya imkoniyatini beradi. Bugun dunyoda shariat asosida boshqarilayotgan aktivlar hajmi 150 milliard dollardan oshgan. O’zbekistonda bu bozor amalda yo’q, bu esa katta bo’shliq mavjud, degani.

To’rtinchisi, ijtimoiy islom moliyasi: vaqf va zakot institutlari. Bu yo’nalish odatda kam tilga olinadi, lekin iqtisodiy ahamiyati juda katta. Vaqf, mulkni jamiyat manfaati yo’lida vaqf etish tizimi tarixda maktablar, madrasalar, kasalxonalar, infratuzilmani moliyalashtirgan. Bugun Turkiya, Malayziya, Bangladesh vaqfni zamonaviy investitsiya vositasiga aylantirishga muvaffaq bo’lmoqda. O’zbekistonda vaqf institutini zamonaviylashtirish nafaqat diniy, ayni paytda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham katta imkoniyatdir.

Xullas, islom moliyasini faqat “foizsiz bank” deb tasavvur qilish xato. O’zbekiston oldida to’liq islom moliyasi ekotizimini qurish imkoniyati bor. Buning uchun strategik tafakkur, izchil siyosat va malakali mutaxassislar zarur.

– Agar siz shu mavzuda uchta muhim tavsiya berishingiz lozim bo’lsa, ular kimlarga qaratilgan va nimalardan iborat bo’lardi?

– Avvalo, davlat organlari va tartibga soluvchi tizimga shoshilmasdan, lekin izchil ish yuritishni tavsiya etgan bo’lardim. Islom bank-moliya tizimini bir kechada yo’lga qo’yib bo’lmaydi. Dunyo tajribasi shuni ko’rsatadiki, Malayziya va Bahrayn kabi eng muvaffaqiyatli mamlakatlar bu yo’lni o’nlab yillar davomida bosqichma-bosqich bosib o’tgan. Shuning uchun asosiy vazifa puxta me’yoriy asos yaratish, Kuzatuv kengashlarining mustaqil va vakolatli bo’lishini ta’minlash, AAOIFI me’yorlariga e’tibor qaratish, tezlikdan ko’ra sifatga ustuvorlik berishdan iborat.

Ikkinchi tavsiyam banklar va moliya muassasalariga oid. Islom bank tizimini “yangi mahsulot” emas, alohida biznes modeli sifatida qabul qilish zarur. Mutaxassislar tayyorlashga sarmoya kiritish, kerak bo’lsa, xorijdan islom huquqi va islom moliyasi bo’yicha mutaxassislarini jalb qilish, mahsulotlarni shaklan emas, mohiyatan shariatga muvofiq tarzda ishlab chiqish talab etiladi. Faqat shakl saqlanib, mazmun yo’qolgan tizimlar oqibatda ishonchni ham yo’qotgan va orqaga qaytgan.

Uchinchii tavsiyam ilm-fan va ta’lim muassasalariga tegishli. Bu – eng muhim va eng kam e’tibor qaratilayotgan yo’nalish. Agar biz o’n yil ichida sohada o’zimizning yuksak malakali mutaxassislarimizni tayyorlay olmasak, islom bank tizimi doimo tashqaridan import qilingan bilim va mutaxassislarga tayanib qoladi. Shuning uchun universitetlarda mustaqil islom moliyasi yo’nalishlarini kengaytirish, tadqiqot markazlarini tashkil etish va xalqaro akademik hamkorlikni faollashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

– So’nggi savol: o’n yildan keyin O’zbekiston islom bank-moliya tizimini qanday ko’rasiz?


– Men optimistman, lekin realist optimist. Bu masalada taxminlarim quyidagicha: joriy yilda ikki yoki uchta bankda islom darchalari ishlashni boshlaydi; o’n yil ichida O’zbekiston moliya tizimida islom bank-moliya tarmog’i taxminan 5-6 foizlik ulushga ega bo’lishi mumkin; besh yil ichida Islom kapital bozori (sukuk) rivojlanadi va davlat infratuzilma loyihalarini islom moliya vositalari orqali moliyalashtira boshlaydi.

Lekin bularning barchasi xodimlar tayyorlashga, kuzatuv nazorati sifatiga va xalqaro integratsiyaga – AAOIFI, IIFM kabi tashkilotlar bilan hamkorlikka bog’liq. Agar shu uch omilga jiddiy e’tibor berilsa, O’zbekiston Markaziy Osiyoda islom moliyasining mintaqaviy markaziga aylanishi mumkin.

Jahongir IMOMNAZAROV
suhbatlashdi.

OLAM OLIMI

Uilyam Lorens BREGG



TARJIMAYI HOL

Lorens Bregg Avstraliyaning Adelaida shahrida tug’lgan. O’rta va oliy ta’limni shu yerda oldi. Otasi Uilyam Genri Bregg mashhur fizik bo’lgan. 19 yoshida oilasi Buyuk Britaniyaga ko’chib o’tdi. Keyinchalik u stipendiat sifatida Kembrijning Trinit kollejida tahsil oldi.

Ota-bola Bregglarga 1915-yilda fizika bo’yicha Nobel mukofoti beriladi. Bu paytda Lorens bor-yo’g’i 25 yoshda edi. Ammo u mukofotga olib borgan ilmiy kashfiyoti ustida 1912-yildan ish boshlagan. Ba’zilar tadqiqotning asosiy yuki otasiga tushgan, deb o’ylashi mumkin, vaholanki, aslida teskarisi bo’lgan: Lorensning g’oyasini rivojlantirish va asboblari yaratishda otasi unga yordam bergan.

1921-yilda uylandi va to’rt farzandning otasi bo’ldi. Katta o’g’li Stiven keyinchalik “Rolls-Royce” kompaniyasida bosh muhandisi sifatida faoliyat yuritdi.

Olim 1971-yil 1-iyulda vafot etdi.

MOHIYAT

Kashfiyot tarixi nemis fizigi Maks fon Lauening rentgen nurlari kristallardan o’tganda difraktsion manzara hosil qilishini aniqlashidan boshlandi. Bu yangilik Bregglarni ushbu yo’nalishda chuqur tadqiqotlar o’tkazishga ilhomlantirdi.

Lorens salafining tajribasiga yangicha yondashdi. U rentgen nurlarining to’liq uzunligi, nurning kristall yuzasiga tushishdagi sirpanish burchagi va kristall ichidagi atom qatlamlari orasidagi masofa o’rtasidagi qat’iy matematik bog’liqlikni kashf etdi. Fan tarixiga “Bregg tenglamasi” (yoki “Vulf-Bregg sharti”) sifatida kirgan ushbu qonuniyat kristallarning ichki tuzilishini o’rganishda inqilob qildi. Difraktsion manzaralarni tahlil qilish orqali insoniyat ilk bor moddalarning ichidagi atomlar qanday tartibda joylashganini aniq hisoblab chiqish imkoniyatiga ega bo’ldi.

Nobel qo’mitasi ushbu kashfiyotning ahamiyatini yuqori baholab, ota-o’g’lini “rentgen nurlari yordamida kristall tuzilishini tahlil qilishdagi beqiyos xizmatlari uchun” yuksak mukofot bilan taqdirladi.

MARRADAN KEYIN

Hozirgacha jahonda Nobel mukofotidan nufuzliroq e’tirof yo’q. Aksariyat olimlar umrining so’ngida erishadigan darajaga 25 yoshida yetishgan olim harakatdan to’xtab qolmadi. U o’z ilmini amaliyotda, xususan, Birinchi Jahon urushi yillarida dushman artileriyasini ovoz orqali aniqlash tizimini yaratishda muvaffaqiyatli qo’ldi.

Keyinchalik, 1919–1937-yillarda Manchester, 1938–1953-yillarda Kembrij universitetlari professori sifatida faoliyat yuritdi. 1950-yillar oxirida Chastotalar bo’yicha maslahat qo’mitasiga raislik qildi.

Ilmiy xizmatlari uchun unga 1941-yilda ritsarlik unvoni berildi.

EHTIROM

Lorens Bregg ilm-fan sohasidagi eng yosh laureat sifatida doimo Nobel qo’mitasining diqqat markazida bo’lgan. 1965-yilda, taqdirlanganining 50 yillik yubileyi munosabati bilan Stokgolmdagi navbatdagi taqdirlash marosimiga faxriy mehmon sifatida taklif etildi. O’shanda ser Lorens, tashkilotchilar taklifiga ko’ra, yarim asr ichida sohada ro’y bergan o’zgarishlar haqida ma’ruza qildi. Odatda, marosimda faqat o’sha yilgi laureatlar nuqt qo’zlardi. Tarixda ilk bor faxriy mehmonga bunday oliy minbar taqdim etildi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.



“Dunyodagi eng oliy baxt – bu anglash zavqi.
Leonardo da VINCHI

”



JADIDLARDAN MEROS QALAM

Boshlanishi 1-sahifada.

Tadbir avvalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga bayram tabrigini Prezident matbuot kotibi Sherzod Asadov o'qib eshittirdi. Shuningdek, Prezident farmoniga ko'ra taqdirlangan hamkasblarimizga oliy mukofotlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva topshirdi.

O'zbekiston Jurnalistlari uyushmasi va tanlov tashkiliy qo'mitasi raisi Shuhrat Oripov yig'ilganlarni bayram bilan qutlab, "Oltin qalam" Milliy mukofoti uchun kelib tushgan ijodiy ishlar haqida batafsil ma'lumot berdi. Shundan so'ng g'olib va sovrindorlar statuetka, diplom hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi. Bosh milliy mukofotga "O'zbekiston 24" telekanali "Tahlilnoma" axborot-tahliliy jamoasi sazovor bo'ldi. Jamoaga Prezident sovg'asi – "BYD Chazor" avtomobili berildi.

21 ta o'rin va 12 ta nominatsiya sohiblari orasida "Jadid" gazetasi tahririyatining borligi o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Zero, milliy jurnalistikamiz negizi bevosita jadidlar harakati va matbuot bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni"ning



belgilanishiga ma'rifatparvar ajdodlarimiz ta'is etgan "Taraqqiy" gazetasining birinchi soni chiqqan sana asos qilib olingan. Prezident tabrigida bunga alohida urg'u berildi: "Bu yil ushbu qutlug' ayyom milliy matbuotimiz asosi – jadid bobolarimiz tomonidan "Taraqqiy" gazetasi tashkil etilganiga 120 yil, yurtimizda radioeshittirishlar ilk

bor tajriba tariqasida uzatilganiga 100 yil to'lgan kunlarda nishonlanayotgani unga alohida shukuh bag'ishlamoqda".

Shu kungacha gazetamizning 130 ta soni o'quvchilarga yetib bordi. "Jadid" kutubxonasi" ruknida ikki jildli "Tilda, fikrda, ishda birlik!" to'plami, "Millat fidoyilari" (Rustambek Shamsutdinov),

"Botmasin chiqqan quyosh" (Bahodir Karim), "Hirota, bobomning huzuriga" (Shahriyor Shavkat) kitoblari chop etildi, "Jadid.uz" sayti faoliyati yo'lga qo'yildi. Tahririyat faqat bosma nashr bilan cheklanib qolmay, media olamda ham o'z so'zini dadil aytib kelmogda. Xususan, Telegram, YouTube, Facebook, Instagram kabi platformalarda yuz mingdan ortiq kuzatuvchiga ega.

Tahririyatimiz o'tgan o'ttiz oylik faoliyati davomida Prezidentimizning "Jadid" gazetasi jamoasi va mushtariylariga" yo'llagan tabrigida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirib kelmogda. Xususan, Davlatimiz rahbari: "Jadid" gazetasi ezgu an'analarni davom ettirib, ulug' ajdodlarimizning Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan mushtarak bo'lgan g'oya va dasturlarini atroflicha yoritish, bu qutlug' merosni el-yurtimiz, birinchi navbatda, yoshlarimizning qalbi va ongiga yetkazishda, jamoatchilik fikrini shakllantirishda o'ziga xos erkin minbar bo'ladi, deb ishonaman", deya ta'kidlagan edi. Ushbu yo'nalishdan kelib chiqib, nashrimizda "Vatan manzumasi", "Yurt qayg'usi", "Millat fidoyilari", "Jadidshunoslik", "Tarix va taqdir", "Moziydan sado", "Oydinlar", "Qatag'on qurbonlari", "Ilm yo'li", "Abadiyat oralab", "Boqiy meros" singari o'nlab ruknlarda dolzarb maqolalar e'lon qilinmogda.

Taqdirlash marosimida gazetamizning faol mualliflaridan Zuhriddin Isomiddinov "Davlat tilini rivojlantirish va nufuzini yanada oshirishga bag'ishlangan eng yaxshi materiallar uchun" hamda Ro'zimboy Hasan "Jamiyatdagi dolzarb mavzularga bag'ishlangan eng yaxshi tanqidiy-tahliliy materiallar uchun" nominatsiyalari g'olibi deb topildi. Har ikki muallifning eng yangi va sara materiallari ilk bor aynan "Jadid" sahifalarida dunyo yuzini ko'rmogda. Buni tahririyatning mualliflar bilan ishlash tizimini izchil yo'lga qo'ygani, dolzarb mavzulardagi chiqishlarga doimiy e'tibor qaratgani samarasi, deyish mumkin.

"Jadid" gazetasi jamoasi bundan keyin ham o'z an'anasida sobit turib, jadidlar merosi va zamona jadidlariga minbar berishda davom etadi.

Jadidlar, avvalo, maorif va matbuot bilan millatning yo'lini oydin qilishga intilgan edi. Bugun ularning orzusi ushalar ekan, "Jadid" tahririyatiga berilgan mukofotni buyuk ma'rifatparvar bobolarimizning yorqin xotirasiga ehtirom ramzi sifatida qabul qilamiz. O'z navbatida, davlat mukofotlari sohiblari va tanlovning barcha g'oliblarini samimiy qutlaymiz.

Otabek BAKIROV

TARIX VA TAQDIR

O'sh shahrida Mirzafozilbek hoji Qosimbekov degan bir odam o'tgan. U ma'rifat qaldirg'ochlaridan biri edi. "Turkiston viloyatining gazetasi", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" gazetalar, "Oyina" jurnalidagi xabar va lavhalar bilan tanishib, dunyoga teranroq nazar sola boshladi, sayohatga o'tlanib, Turkiya, Bolqon mamlakatlarini, Saudiya Arabistonini kezib chiqdi, islom va Sharq falsafasini teran o'rgandi. Keyinchalik Sankt-Peterburg dorilfununining tinglovchisi bo'ldi. O'zi hamisha yozib yurgan sayohat kundaliklari asosida geografiyadan ma'ruzalar o'qidi.

1863-yilda Badaxshonda tug'ilgan Mirzafozilbek Marg'ilon-dagi Sultonmurodbek madrasasini bitirgach, O'shda yashagan.



Suratda: Mirzafozilbek (o'ngdan birinchi) B. Grombchevskiyning geografik ekspeditsiyasi tarkibida. 1885–1888-yillarda.

MIRZOLAR FOZILI

Rus-tuzem maktabida muallimlik qilgan, Mirzakalon Ismoilii, Izzat Sultonlar ushbu maktabda ta'lim olishgan.

"Farg'ona tong otguncha" romanida shunday lavha bor: "G'ulomjon... O'shga jo'nadi. U yerda taraqqiyparvarligi bilan shuhrat qozongan Mirzo Fozil hojinikiga borib tushdi. U kishi o'sha mahallalar rus-tuzem maktabida dars berar, ilm va ma'rifat yo'lida jonbozlik ko'rsatib, musulmon bolalarini yangi usul maktablarda o'qitish zarurligini charchamay targ'ib etar edi.

Ayrim fikri tor, "usuli qadim"chi bo'lgan ulamolar qizilbosh, shia deb badmazhablikka chiqqan bu zo'r taraqqiyparvar olimning shuhrati G'ulomjonni madrasadalgidayoq maftun etgan edi. G'ulomjon musulmon domlarning rus-tuzem maktabida qanday dars berishini, nimalar o'qitishini, qanday darsliklar qo'llanishini bilishga ozumanda edi. Mirzo Fozil hoji G'ulomjonni quchoq ochib qabul qildi. O'zining tajribalarini aytdi, bir kun maktabga olib borib, ta'lim usulini ham ko'rsatdi, programmlar bilan tanishtirdi va o'qish-yozish, hisob hamda jo'g'rofiyaga oid darsliklar topib berib, dadil maktab ocha bering, o'zimiz qarashib turamiz, deb jo'natdi"... Bu maktabda Mirzafozilbek o'zbek tilida dars bergan.

Bu taniqli olim geografik ekspeditsiyalarda ham qatnashgan. 1885-yilda u B. Grombchevskiyning ekspeditsiyasiga Farg'ona-Qashqar chegarasiga viloyatidan boshlab, janubiy Qashqardan to' Xo'tanga qadar hamrohlik qiladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Pomir, Hindikush, Qashqar, Tibet va Afg'oniston bo'ylab o'tkazilgan mushkul ekspeditsiyalarda qatnashgan.

Bundan tashqari, Mirzafozilbek tarixchi Sangmuhammad Badaxshiyning XVIII asr tafsilotlariga bag'ishlangan "Tarixi Badaxshon" asarini davom ettirib, tafsilotlarni XX asr boshlariga qadar yetkazib, tugallaydi. Bu tarixi asarning yagona qo'lyozmasi Sankt-Peterburgda saqlanadi. Rus olimlari tomonidan qisman tadqiq etilgan asarni professor Haydarbek Bobobekov chuqur o'rgandi, ruscha tarjimasini sharh, izohlar, tahlil bilan 2015-yil Toshkentda chop ettirdi. Uning boshqa tarixiy kitoblardan farqi shundaki, voqealarni tashqi kuzatuvchi emas, balki aynan shu muhitda yashagan inson bitgan: Badaxshondagi siyosiy jarayonlarni bevosita guvoh yoki ishtirokchi tilidan bayon qilgan. Hududdagi turli etnik guruhlarining joyi va o'zaro aloqalari tafsilotlari, ayniqsa, qimmatli.

XIX asr Badaxshonining bosh tarixchisi bo'lgan Mirzafozilbek Qosimbekovning asarida Pomir tarixining eng murakkab davri: mahalliy hukmdorlarning o'zaro nizolari, Afg'oniston amirligining ekspansiyasi, shuningdek, chor Rossiyasining Pomirni egallashi jarayoni batafsil tasvirlangan. Bu kitobsiz ushbu davr mintaqqa tarixining manzarasini tiklash nihoyatda qiyin bo'lar edi.

Zamondoshlari Mirzafozilbekni ilg'or qarashlarga ega inson, zakiy ma'rifatparvar, jamoat arbobi va sayyoh sifatida bilishar edi. Birgina misol: Ahmadzaki Validiy 1913-yilda Mirzafozilbek hoji Qosimbekov xonadoniga tashrif buyurib, bu yerda Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan muhim manba – Mullo Yunusjon Mushrif qalamiga mansub "Tarixi Shohruhiy" va boshqa bir qancha eng nodir qo'lyozmalar bilan tanishgan.

Mirzakalon Ismoilii "Farg'ona tong otguncha" romanining bir o'rinda bosh qahramoni – olg'a surgan g'oyalarning tajassumi

MOZIYDAN SADO

KENGASHLI YURT

Ma'lumki, bundan ikki ming yillar oldin Rim imperiyasi davlat tizimida senat boshqaruvning oliy organi bo'lib, u qonunlar ishlab chiqar, ijrosini nazorat qilarg va yana ikki yil muddatga imperiya hududlarini idora qilish uchun konsullar say-lardi. Keyinchalik ayrim Yevropa davlatlarida qirollar huzurida shunga o'xshagan maslahat kengashlari tuzilgani ham bor gap. 1843-yilda Xiva taxtiga o'tirgan Muhammad Aminxon muqaddam mavjud bo'l-gan urug' oqsoqollari kengashi o'rniga (bu kengash ko'proq nomiga tuzilgandi) Oliy kengash ta'is qiladi. Bu kengashga otaliqlar, inoqlar, beklar, shuningdek, oqsoqollar ham kirgan. Unda xonlikdagi hududiy birlik – o'n oltita viloyat, shuningdek, son jihatdan ozchilikni tashkil qilgan urug'lar manfaatlarini inobatga olingan.

Shu o'rinda aynan Muhammad Aminxon soliq tizimida o'tkazgan islohotlar samarador bo'lgani, aholi-nin barcha qatlamlari tomonidan mamnuniyat bilan qarshi olinganini eslash joiz. Soliq tizimi bo'yicha xalqchil islohot o'tkazish, mo'tadil qaror chiqarishda xon aynan Oliy kengashning tavsiya va takliflariga suyangani aniq. Negaki, Oliy kengash a'zolari orasida xonlikning barcha hududlaridan oqso-qollar, urug' biylari bo'lganki, ular yer, tuproq va suv taqsimoti sharoitidan kelib chiqib, soliq belgilash bo'yicha o'z takliflarini bildirgan, b'zlar bosh bo'lgan aholi qatlamlari manfaatlarini himoya qilgan.

Oliy kengash qanday vakolatlarga ega edi, qanday faoliyat yuritardi? Yaxshisi, bu o'rinda xolislik uchun xorijlik guvohga quloq tutaylik. Xiva xonligiga sayyoh niqobida kelgan N.Muravyov "Xiva va Turkmaniyaga sayohat" kitobida shunday yozadi: "Bu kengash har haftada juma kun ko'rinish xonada to'planadi. Muzokaralar boshlanishi oldidan xonning mulozimlari hozir bo'lganlarga tovoqda osh tortadi. Hamma ovqat yeb, to'rganlaridan keyin maslahat boshlanadi. Bayon etilgan Oliy kengash Xiva xonligida yagona grajdanlik va jinoyi ishlar sudi hisoblanadi. Yuqorida aytilganlardan qanchalik adolat borligini ko'rish mumkin, chunki doimiy mustahkam qonunlar yo'q edi, ishlar ba'zan shu kengashning xohishiga qarab, ba'zan esa xonning foydasiga hal qilinadi".


Bundan anglashiladiki, belgilangan vaqtga Oliy kengash yig'ilgan. Bu tushlikka yaqin bo'lganki, taom tortil-gan. Keyin kun tartibidagi masalalar muhokama qilingan. Lekin N.Murav-yovning "doimiy mustahkam qonunlar yo'q" degan so'zlari ishonarsiz. Chunki,

o'lkadagi barcha xonlik va amirliklarda shar'iy va dunyoviy qonunlar amaliyotda bo'lgan. Xiva xonligida joylardagi qozilar fuqarolik munosabatlari va boshqa jinoyi ishlar bo'yicha hukm chiqarish vakolatlarga ega bo'lgan. Faqatgina o'lim jazosi xon ixtiyoriga qoldirilgan. Demak, Oliy kengashda ko'pincha ayni shu o'lim jazosi mahkumga to'g'ri berildimi-yo'qmi, degan masala muhokama qilingan.

N.Muravyovning "ishlar ba'zan kengashning xohishiga qarab" hal qilinishi haqidagi e'tirofi ahamiyatli. Bu holat (mayli, hamisha emas, ba'zida deb

bini joriy etadi. Avvalida sanoqli a'yonlar a'zo bo'lgan kengash vaqt o'tib, hatto xonga ta'sir ko'rsatish darajasiga yetadi. Xiva xonligida amalda bo'lgan Oliy kengash faqat nomiga – qog'ozda emas, foydali ta'sir kuchiga ega bo'lganini sovet olimlari qisman tan olishga majbur bo'lgan. Ammo, undan kamchilik topish "kasalligi" ko'pgina tarixiy risolalarda baribir ustunlik qiladi.

Turli urushlarda asir olingan, turkman qabilalari bosqinlarida keltirilib, qul qilib sotilgan fuqarolarni ozod qilish ilinjida 1852-yili Xivaga kelib, shu masalada bir necha marta Muhammad Aminxon



taxmin qilganimizda ham) kengashning "o'lik organ" emas, xon huzurida erkin fikr aytish imkonini mavjudligini ko'rsatadi. Xonlikda tuzilgan Oliy kengashning ko'pchilik fikri asosida ishlaganini boshqa davlatlardan kelgan elchilar ham e'tirof etgan. Masalan, tashqi siyosat masalasida Oliy kengash vakolati naqadar muhimligini 1852-yili Xivaga kelgan Eron elchisi Rizoqulixon Hidayot yo'nomalarida ham uchratamiz. U xon oldiga kirishdan oldin o'z istak va takliflarini mehtarga yetkazgan. Mehtar elchi takliflarini xonga yetkazganidan so'ng, albatta, kengash chaqirilgan.

Manbalarining bildirishicha, kengash mustaqil qarorlar chiqarmagan. Garchi, kengash davlatning turli-tuman ichki va tashqi ishlarini muhokama qila olsa-da, biroq muhokama qilingan masalalar va kengashning fikri, dastavval, xonning xohish va irodasiga bog'liq bo'lgan. Bu hozirda dunyoning aksar davlatlarida amaliyotda bo'lgan huquqiy ustqurmani eslatadi. Qonun chiqaruvchi palata ishlab chiqqan qonun yoki qonunosni hujjatlarini prezident yoki bosh vazir tasdiqlagach, kuchga kiradi. Bu – insoniyat ming yillarki intilgan demokratiya atalmish boshqaruv tizimining tub negizi-ku!

Xiva xonligi taxtiga o'tirgan qo'ng'i-rot sulolasi vakillari ilk bor davlat bosh-qaruvida kengashdan foydalanish tarti-

bilan muzokara olib borgan Rizoqulixon Hidayot yo'nomalarida qayd etilishicha, xon unga qullarni ozod qilish bo'yicha Oliy kengash bilan maslahatlashganidan so'ng bir qarorga kelishi haqida aytdi. Maslahatdan so'ng esa elchiga rad javobi berilgan. Rad javobiga asos qilib xon: "Bizdagi eroniymlarning ko'pchilligi raiyat qo'lida. Ular qullarni 40-50 tilloga sotib olishgan va ularning mulki hisoblanadi. Ularni ozod qilish uchun o'sha tillaolarni davlat g'aznasidan to'lab bermoq kerak bo'ladi. Raiyatning shaxsiy mulkini kuch bilan olib bo'lmaydi. Xazinada hozir bu qadar mablag' yo'qdir. Eron podshohi o'z ilkida ushlab turgan fuqarolarimizni boshqa-bosh almashishni istasa, bizlar rozimiz", deydi. Demak, elchi o'rtaga tashlagan masala Oliy kengashda muhokama qilingan, xon ko'pchilik fikriga qo'shilgan.

Bizga o'qitilgan tarix kitoblarida "mustabid", "yakka hukmdorlik", "bir kishining xohish-irodasiga bog'liq" kabi qora bo'yoqli sifatlariga to'lib ketgan xonlik tuzumi, xususan, uning so'ngi davrida Oliy kengash tuzilgani va faoliyat yuritgani e'tiborga loyiq. Zero, "Maslahatli to'y tarqamas" mazmunli otaso'zimiz paydo bo'lgan o'zanlar xiyla uzoqlardan suv olgandir.

Ro'zimboy HASAN

Zuhriddin ISOMIDDINOV



TALQIN

Hayot – sayr, taqdir uning sarhadi. Sayrsiz hayotda zavq, sarhadsiz taqdirda me'yor yo'q. Zavq va me'yor imkoniyatlarning mohiyat, sevinch-u quvonchlariga samimiyat baxsh etadi. Nima qidirsang – taqdirdan, nima top-sang – omaddan. Taqdirga ishonish-ishonmaslik sening ixtiyoringda emas, omadni izlash sening erk-ixtiyoringda. Hayot sarhadiga aylangan taqdir goho hayot-sayrga, taqdir sayriga aylansa, ajabmas. Kim hayot-sayrdan o'zmoqchi bo'lsa, u, shubhasiz, taqdirini tasodiflarga to'la sayrga aylantiradi. Tasodiflarsiz taqdir bormikan? Kim tasodiflarni taqdirim deb qabul qilsa, hayot uni yanada iztirobli sinovlarga duchor etajak...

Erkin A'zamni o'quvchilarga tanitishga hojat yo'q, u "bir dumalab" Xalq yozuvchisi, adibi bo'lib qolmagan. Roman, qissa va kinossenariylari bilan o'zbek adabiyotiga shuhrat qo'shgan ijodkor. Uning o'tgan yili chop etilgan "Momaqaldiroq ostida sayr" romani bu fikrning yana bir tasdiq'idir.

Romanning bosh qahramoni – yosh, qobiliyatli, she'riyat shaydosi va bu borada nimalargadir umidvor, qishloq qizi Oyravshan. "Ham iste'dod egasi, ham shundoq go'zal" bu qiz she'riyatda nom qoldirish niyatida Toshkentga keladi. U romanning o'ttiz yettinchi betida paydo bo'ladi. Shu sahifadan boshlab adib uni o'quvchidan (aslida, o'quvchini undan) uzoqlashtirmaydi, taqdir sayriga yetaklaydi.

Go'zallikning shaydolari ko'p, ammo shaydolarlarning barchasi ham sof niyatli emas. Ular ichida a'moli-mansabi, ko'ngil-ermagi va bosar-tusari bejilov "to'racha", "boyvachcha", "falon-falovichlar" yetarlicha. Qachon, qayerda ular qarmog'iga ilinasan, bilmaysan. Yaqin, saxiy, mehribon bo'lib ko'ringan shaxsning ko'magi tagida nima borligini pokdamon Oyravshan u yoqda tursin, hatto buyuk ruhiyatshunos neofreydchi ham topolmaydi.

Mahalladoshi, viloyat prokuraturasining mas'ul xodimi Iskandar "qarmog'iga tushgan" Oyravshan sharmadallikka chidolmay, sevadigan, hatto unashtirilgan yigiti G'ayratga unga munosib emasligini bildiradi. Keyin Oyravshan bosilayotgan she'rilarini "yuvish"ga undagan jurnal mas'ul kotibi qarmog'iga ilinadi. Keyin Bobo, undan keyin Begunoh... Ularning soni necha edi, buning Oyravshanga ahamiyati qolmagandi. Adib buni oshkor etmasa-da, Oyravshanning taqdir sayri o'quvchida taxminlar uyg'otadi. Nahotki, shahar muhiti bedil, beayov va behayo? Sofniyat va iste'dodli qishloq qizining umidlarini beshafqat

toptashni oddiy hol, to'yib-to'yimas istaklariga ermak biladi?

G'arb shaharlarida hayo, iffat, bokiralik degan tushunchalar allaqachon unutilgan va buni hech kim fojia hisoblamaydi. Bu odat bizga ham kirib kelayotgani yo'qmi? Oyravshanning Iskandar qarmog'iga ilinib, sevgan, unashtirilgan yigitidan voz kechgani sharqona odobning g'arb axloqidan farqlanishiga ishoradir. Bokiraligidan ayrilgan Oyravshan bu holni fojia deb qabul qiladi, umri bo'yi shu o'y-azobda yashaydi.

To'g'ri, romanda Oyravshanning bu boradagi alamli kechinmalari sezilavermaydi, go'yoki u shahar axloqiga me'yoriylariga ko'nikkandek. Ammo adib qahramonini yakka qoldirmaydi, uni oltmishdan oshgan Boboga "nikohlaydi". Pinhoni bu "nikoh"dan Abubakr tug'iladi. Oyravshan o'g'illi bo'ladi. An'anaviy tasavvurlarni buzib, benikoh tug'ilgan Abubakrni qabul qilgan otaxonga ta'zim qilgini keladi. Ikki oyog'i kesilgan, aravachaga bog'langan Boboning qahramonlar bilan so'nggi uchrashuv lavhasi, "Abubakrni oyoqqa qo'ymoq kerak", degan mehrga, insoniylikka to'la orzu-da'vati ham o'ta ta'sirli, serma'no chiqqan.

Qari chol-otaning istagini tushunish kerak, Oyravshanning unga talpinishi va qo'llarini siypalishida ham inson ba'zan anglamaydigan, sirli bir tuyg'u yashiringan. Adib bu lavhani sharqona axloq-odob doirasida tasvirlab, toptalgan Oyravshan sha'nini qayta tiklagan bo'ladi.

Qari chol-ota obrazi juda bo'r'tib turmasa-da, yosh ("o'ynashi") deyishga til bormaydi) xotiniga, o'g'liga mehri, ular haqida qayg'urishida olijanob axloqiylik mujassam. Bobo yoshini yashagan, qanday qilib u "she'r-u she'rxonlik bilan, husn-u malohat bilan vohaning to'rt tomoniga dong taratgan, ko'ngil daryosida erkin suzib, har sohada birinchilikka intilib yurgan serda'vo, shon-shuhratga o'ch qiz bolani" o'ziniki qildi ekan? Bu o'rinda Oyravshanning shuhratli erkakka muntazir ekani ayon bo'lib qolmaydimi? Bugungi kapitalistik munosabatlar xotin-qizlarni ham tovarga aylantirayotgani qahramon taqdirida namoyon bo'layotgani yo'qmi?

Erkin A'zam adiblik etikasiga borib va sharqona axloq normalariga tayanib, qahramonidagi shuhratli erkakka bo'lgan maylini niqoblayotgandek tuyuladi. Bobo bilan Oyravshan o'rinasidagi yaqinlikning shakllanish jarayonlari qahramonning Iskandar, mas'ul kotib, Begunoh kabilar bilan kechgan ziddiyatli voqeiklaridan

kam ziddiyatli kelmagan, bu tabiiy holdir. Ammo uni tasvirlashni adib lozim topmagan, natijada Bobo bilan Oyravshan osongina "er-xotin"ga aylanishgan.

Aslida, Bobo bilan Oyravshan munosabatlarida ziddiyat, hatto tragizm ko'p. Oyravshanning osongina Rais boboning "xotini"ga aylanishida ishonchli tasvir yo'q. Bu tasvir o'rniga, Iskandar kabi salbiy obrazlarning qilinishlari, ularning fosh qilinishiga oid lavhalar badiiy mahorat bilan keltiriladi. Balki, bu o'rinda adibimiz o'zining katta tajribasi va iqtidoriga ko'ra, o'quvchini o'yg'a soladigan, u kutmagan sarta'sir lavhalar ham yasashi mumkin edi...

Iqtidorlarning keng ijod sahnasiga chiqishi hech qachon silliq, oson kechmagan. Mavjud ijod muhiti chekkadan kelgan yangi iqtidorga mudom shubha bilan qaragan, uni ilg'amaslikka, ba'zan esa butunlay tilga olmaslikka intilgan. Erkin A'zam badiiy-ijodiy muhitning mazkur nozik-sirli tomonlaridan yaxshi xabardor. Ushbu nozik-sirli tomonni u Oyravshan taqdiri orqali tasvirlashga intiladi.

Ming afsus, bu to'qnashuv-kurashda qahramon yakka. Shu bois, u "Sinchalak"dagi Saidaga bo'lmaydi, Qalandarovni mot qilolmaydi. Darvoqe, poytaxtga nima yetaklaganini bilolmay, qishloqqa qaytishga ahd qilgan juvoning qarori Qalandarovning Saidaga aytgan "Nimjongina ekansiz", degan boy-feodallarcha munosabatini esga solmaydimi? Oyravshan ushbumunosabatga taslim bo'layotgani yo'qmi? Yo xotin-qizlarimizda boy-feodallarcha munosabatlarga qarshi turish istagi mahv etilganmi, so'nganmi? Bu borada biz romanga ko'p talablar qo'yishimiz mumkin, lekin tanqid talablar qo'yishga emas, tahlil qilishga yo'naltirilgani ma'qul.

Vaqt-mavridi bilan adib qahramonlari hayot, taqdir, yaxshilik va yomonlik, mehr-muhabbat haqida falsafiy mushohadalarga beriladi: "Bu ovloq soy-u adirlik, do'ng boshida tanho o'sgan gujumdanda sas-sado yo'q. Tomoshabin ular. Mangu tomoshabin. Tevarak tog'-u tosh kabi, cheksiz-poyonsiz arzi falak kabi... Zamin usti – osmon ostidagi chigal savdolarni ular mudom mana shunday beparvo, bezabon kuzatgan", "Dunyosi ham mana shu soy-u adirlikdan iborat javonib misol notekis, noto'kis ekan-da, ajab", "Dunyosi bir changalzor, jiyan. Bunda o't ham bor, chechak ham. Foydali giyohu tikanaklari ham bor. Lekin tikanaklari ko'p, jiyan, chaqirtikani.

Qani edi, shunisidan kamroq bo'lib, hammayoq gul-u gulzor, odamzodning ko'ngil ham shunday chaman, yomonlikdan, egrilikdan xoli bo'lsa...E-e, darig'!"

Bu falsafiy mushohadalar hayotning asl mohiyati haqida o'ylashga undaydi. Taqdirini tasodiflar ixtiyoriga topshirib qo'ygan kishilarning bunday fikr-mushohadalari asosli eshitilavermaydi. Roman qahramonlarida qandaydir jasorat, hayotga zavq-shavq bilan talpinish kuzatilmaydi, ular xatti-harakatlari ustidan adib bosiqliqi hukmron. Detektiv-romanlar, g'ayrati oshib-toshib yotgan "superqahramon"larga, afsonaviy obrazlarga to'la trillerlar, fantaziya bosiqlik uslubini zamonaviy o'quvchiga konservatizm, zerikarli qilib ko'rsatadi.

Lekin adabiyot – axloq jarchisi, degan prinsip o'z qimmatini yo'qotmagan. Adabiyot insonda insoniylikni rivojlantirishi, oshirishi bilan e'zozli. Erkin A'zamdag bosiqlik sharqona axloq prinsiplaridan unib chiqqani bois, uning qahramonlari an'anaviy yaxshilik-yomonlik qarama-qarshiligi doirasida harakat qiladi. Ularda radikalizmga, yon-atrofni, hatto o'z hayotini ham keskin o'zgartirishga intilish yo'q.

Oyravshanning poytaxtga kelishi, madam Xosiyat, Mansur, Tamara, Benuqson (Muzaffar-xo'ja Muhammadxo'jayev), Lazizbek Ikramovich bilan aloqalari ham, goho g'ayriaxloqiy holatlar ro'y bersa-da, drammatizmga borib yetmaydi. Shahardagi yangilabiatlikka Oyravshan ko'nikib qolgandek...

Qahramonning saylovda qatnashishi bilan bog'liq vaziyatlar hangomasifat. Adib ularni Oyravshanning taqdir sayri bilan mohirona bog'lagan. Saylov ayrim shaxslar istagi bilan kishilarni laqlatish, o'yin vositasi bo'lishi mumkinligidan hayratga tushadi o'quvchi. Hayrat esa savollar uyg'otadi: nega qahramon saylovga aralashib qoldi? Hayoti alg'ov-dag'ov bo'lib turganida, unga kerakmi deputat bo'lish? Saylov bilan bog'liq lavhalar, aslida, mashmashalar, qahramon xarakteri va hayot tarziga muvofiq kelmasa-da, mavjud tizimdagi g'ayridemokratik hollarni ochib berishga qaratilganini ilg'ash qiyin emas.

Oyravshandan siyosiy arbob chiqarmidi? Muhimi bu emas, muhimi – saylov tizimidagi noqisliklardir. Ko'zga ko'rinmas, qo'lga ilinmas qandaydir shumniyat kuchlar saylovni g'arazi o'yinga aylantirgan. Ommani laqlatishning bu



usulidan diling xunob bo'ladi. Ammo adibning saylov mashmashalarini o'z qahramoni taqdiriga badiiy mahorat bilan yaxlitlaganiga tan berish lozim. Nomuvofiqni muvofiq qilib, unga o'quvchini ishonitirish – katta iste'dod.

Roman Iskandarning to'satdan o'limi bilan yakunlanadi. Oyravshanning nomusini, sha'nini toptagan, sevgan kishisidan voz kechishiga sababchi bo'lgan bu badniyat, takabbur kimsa Amerikaga qochib ketish oldidan yurak xurujidan o'lib qoladi. G'ayrat uning qo'shnisi sifatida Ta'ziyaga boradi. Ta'ziyachi ayollar ichida Oyravshanga ham ko'zi tushganday bo'ladi. Adib asarini tugatadi.

Shundaymikan, menimcha, yo'q. Romanning ikkinchi, balki uchinchi jildlari bordek. Endi taqdir sayri Abubakrmi bo'lsa, ajab emas. Aslida, yozuvchining baxti-omadi va mahoratiga berilgan baho – o'quvchining asar davomini istashida emasmi?..

Viktor ALIMASOV,
falsafa fanlari doktori,
professor



JAHON AYVONIDA

REKORD DARAJADA HARORAT



Dunyo ummoni yuzasining o'rta-cha harorati iyun oyida 21,0 darajaga yetib, 2023 va 2024-yillarning shu oyida qayd etilgan eng yuqori ko'rsatkichlardan oshib ketdi. Bu haqda Copernicus Marine Service xabar berdi.

Qaynoq harorat o'choqlari – Tinch okeanining tropik va subtropik qismlarida, Chili va Kaliforniya qirg'oqlari yaqinidagi zonalarda, Shimoliy Atlantikaning subtropik qismida hamda Yevropaning g'arbidagi suvlarda qayd etildi.

QURULTOYGA SAYLOV



Qozog'iston parlamentining yangi bir palatali organi – Qurultoyga saylovlar 23-avgust kuni bo'lib o'tadi. Bu haqda 1-iyul kuni mamlakat prezidenti Qasim-Jomart Toqayev farmoni imzolandi.

Qurultoy partiyaviy ro'yaxlatlar bo'yicha saylanadigan 145 nafar deputatdan iborat bo'ladi. Vakolat muddati – besh yil.

1-iyuldan Qozog'istonda yangi Konstitutsiya rasman kuchga kirdi. Undagi asosiy o'zgarishlardan biri ikki palatali parlamentdan bir palatali parlamentga o'tish.

O'G'IRLANGAN PUSHKIN

Germaniyaning Gemer shahrida Aleksandr Pushkinning haykali o'g'irlab ketildi. Bu haqda Rossiya Federatsiyasining Germaniyadagi elchixonasi xabar berdi.



Ma'lumotlarga ko'ra, bronzadan yasalgan, qariyb 1,8 metr balandlikdagi haykal 1994-yilda Rossiyaning Shyolkovo shahri tomonidan sovg'a qilingan bo'lib, ikki xalq o'rtnasidagi do'stlik ramzi sifatida o'rnatilgan edi.

ALIFBO O'ZGARTIRILMAYDI

Qirg'izistonda davlat tomonidan qirg'iz alifbosini o'zgartirish masalasi ko'rib chiqilayotgani haqidagi gaplar rad etildi. Bu haqda Prezident Administratsiyasining axborot siyosati xizmati rahbari Dayirbek Orunbekov ma'lum qildi.



Uning so'zlariga ko'ra, so'nggi kunlarda muhokama qilinayotgan takliflar Fanlar milliy akademiasining ayrim vakillarining shaxsiy tashabbusi bo'lib, davlat pozitsiyasini aks ettirmaydi.



FORUM

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashabbusi bilan Parkent ijod uyida bo'lib o'tgan III Xalqaro tarjimonlar forumi qo'shni davlatlarda o'zbek tilida ijod qilayotgan, shuningdek, milliy adabiyotimizni targ'ib etayotgan ko'plab shoir-yozuvchi, tarjimonlar uchun fikr va tajriba almashish maydoniga aylandi.

Xorijda istiqomat qilayotgan vatan-doshlarni qo'llab-quvvatlash, ular bilan adabiy aloqalarni tizimli ravishda mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan ushbu forumda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlaridan kelgan bir guruh adabiyot fidoyilari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faxriy a'zolari, shuningdek, badiiy tarjima rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan mahalliy tarjimonlar, yosh ijodkorlar va OAV vakillari ishtirok etdi.

Tadbirni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari Minhojiddin Mirzo tabrik so'zi bilan ochib, tarjimaning xalqlarni birlashtiruvchi ulkan ma'naviy qudrat ekanini ta'kidladi. Shundan so'ng Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Behzod Shukurov, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Sher, "Jahon adabiyoti" jurnali bosh muharriri Ahmadjon Meliboyev, tanilgan tarjimashunos olim Zuhriddin Isomiddinovning so'z mas'uliyati, zamonaviy tarjima uslublari, tarjimon mehnatining qiymati va qadriga oid ma'ruzalari tinglandi. Marosimda yangi davr badiiy tarjimashunosligiga oid dolzarb masalalar o'rta qatnashildi.

– Keyingi yillarda rasmiy diplomatiya bilan bir qatorda xalq diplomatiyasi ham shakllanib bormoqda, – dedi Behzod Shukurov. – Biz tarjimonlarni norasmiy diplomatlar deb bilamiz. Chunki bir millat adabiyotini boshqa bir mamlakat xalqiga tanituvchi insonning xizmati bir elchilikdan kam emas. Ular faoliyatining asosida millatlar o'rtnasida

ma'naviy yaqinlikni barpo etish, milliy qadriyatlarini jahonga tanitish kabi ezgu vazifa bor.

Tadbirda durdona asarlarimizni qo'shni davlatlarda targ'ib qilish ishla-



ridagi faolligi bilan jamoatchilik e'tiboriga tushgan bir guruh tarjimonlarga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari g'uvohnomalari tantanali ravishda topshirildi.

Forumning ochilish marosimida ishtirokchilar tomonidan o'rta qatnashlangan g'oyalari va bildirilgan takliflar kunning ikkinchi yarmida o'tkazilgan davra suhbatida keng muhokama etildi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali moderatrigida o'tgan davra suhbat "Dunyo adiblari ijodida Amur Temur siymosi" mavzusiga bag'ishlandi. Unda buyuk sarkarda siymosini yaratish borasidagi mavjud qarashlar, jahonda Sohbiqiron faoliyati haqida yozilgan ilmiy, tarixiy, ommabop asarlar va ularning o'zbek tiliga qilingan tarjimalari masalalari ko'tarildi. Rustam Musurmon, Zokirjon Mo'minjonov, Xosiyat Bekmirzayeva, Robiya Do'stonova, Bahodir Otash,

Alisher Sabriy kabi qatnashchilarning mulohazalari eshitildi.

So'ng qozoq, qirg'iz va tojik adabiyoti kengashi a'zolari alohida sho'balarga bo'linib, asosiy e'tiborni sohani

Yaxshi tarjimonlar maktabini yaratish, o'tkir adabiyotshunoslar tasdig'idan o'tgan asarlarning tarjimasini ko'paytirish kerak. Mumtoz adabiyotimizni ko'proq yoyishimiz, buning uchun esa yangi tarjimonlarni kashf etmoq'imiz zarur. Xalqaro darajadagi mazkur forumlar ularni topishimizga omil bo'ladi.

Ma'lumki, 2025-yil badiiy tarjima sohasida katta yangiliklar yili bo'ldi. Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot ta'is etilib, ilk sovrindorlari aniqlandi. "Boburnoma", "O'tkan kunlar" asarlari qirg'iz tilida chop etildi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonning "Saodat sohili" qissasi qozoq kitobxonlariga taqdim etildi. Qirq nafar zamonadosh adibning hikoyalardan tarkib topgan "O'zbek zamonaviy hikoyalari antologiyasi" Qozonda tatar tilida nashrdan chiqdi. Turk she'rxonlariga O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning "So'zsiz o'tirdim dunyo ichida" she'riy to'plami armug'on etildi. Ayniqsa, mashhur "O'tkan kunlar" romanining koreys tilida chop etilishi muhim adabiy voqealardan biri bo'ladi.

Ijod uyining ilhomboxsh shabada esib turgan yozgi ayvonida tashkil etilgan qardoshlar mushoirasi ham esda qolari bo'ladi. Ishtirokchilar o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, tatar tilida ijod namunalari, boshqa tillardan o'g'irilgan she'rlarni o'qidi.

– Forum doirasida biz nafaqat o'zbek, balki qirg'iz, tojik birodarlarimiz bilan ham ko'rishdik, gurunglashdik, she'rflashdik, – dedi Qozog'istondan tashrif buyurgan mehmon Zokirjon Mo'minjonov. – Shu jarayonda adabiy do'stlik rishtalari yil sayin mustahkamlanib borayotganini his qildik.

Ikki kun davom etgan anjuman qo'shni va qardosh xalq vakillarining iliq xayr-xo'shlashuvi bilan nihoyasiga yetdi. O'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz ijodkorlarining o'z tillarida bildirgan izhorlari ko'ngillar birligini namoyon etdi.

Muhayyo RUSTAMOVA



MILLAT FIDOYILARI

Yillar davomida qatag'on qurbonlari haqida yuzlab arxiv jildlarini varaqlashga to'g'ri keldi. Ba'zan bir inson taqdiriga doir to'rt yuz-besh yuz sahifali hujjatlarni o'qib, atigi bir necha sahifa ma'lumot to'plash mumkin bo'ladi. Ba'zan bir ish jildi ortidan boshqasi ochilib, butun bir davr manzarasi ko'z oldingizda gavdalanadi. Ali Rasulov haqidagi hujjatlar ham shunday.

2012-yili nashr etilgan "O'zbekistonda sovetlarning qatag'on siyosati va uning oqibatlari" nomli kitobimizda Ali Rasulovning 1938-yil 4-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasi qarori bilan otuvga hukm qilingani haqida qisqacha ma'lumot taqdim etganmiz. Keyinchalik qo'limizga tushgan arxiv materiallari bu inson taqdirini ancha kengroq yoritish imkonini berdi.

Ali Rasulov 1885-yili Toshkent shahrida tug'ildi. U Turkiston hayotida yangi ta'lim tizimi shakllana boshlagan davr farzandi edi. Rus-tuzem maktabida olgan bilimi turli idoralarda ishlashga yo'l ochdi. Dastlab Samarqand oblast boshqarmasida tilmochi qilgan, so'ng faoliyatini xo'jalik va iqtisod sohasida davom ettirgan. O'zbekiston paxta tayyorlov trestida iqtisodchi sifatida ishlagani ham qayd etilgan.

Bu ma'lumotlar chetdan qara-ganda oddiy tarjimaiy holga o'xshay-di, biroq, ular ortida Turkistonning



yarim asrlik tarixi mujassam. Bun-day hujjatlarning qimmati ham shunda. Qahramonimiz haqidagi materiallarda ayni shu manzara ro'y-rost kuzatiladi: rus-tuzem maktabi, davlat idoralari, iqtisod sohasidagi mehnat... Keyin esa qatag'on. Bu halqalarni bir-biriga bog'lay olgan tadqiqotchi tugal xulosalarga keladi.

Ammo arxivlar qahramonimiz hayotining barcha sahifalarini saq-lab qolmagan. Biz uning qayerlarda bo'lgani, qaysi yig'inlarda qat-nashgani yoki kimlar bilan muloqot qilganini to'liq bilmaymiz. Faqat hujjatlardan anglab olishimiz mumkin bo'lgan haqiqat shuki, Ali Rasulov

o'sha davrning siyosiy va ma'riyfi jarayonlaridan chetda turgan inson emas edi. Tergov materiallarida uning "Ittihad va taraqqiy" tashkiloti bilan bog'liq faoliyati yuzasidan ko'rsatmalar qayta-qayta uchraydi.

1920-yillar Turkiston uchun umid va ziddiyatlar davri bo'ldi. Ko'plab ziyolilar yangi davlat tizimi ichida ishlashga harakat qildi. Kimdir maorif, ayrimlar xo'jalik ishlariga, yana boshqalar davlat idoralariga yo'naldi. Ali Rasulov ham shu avlodning bir vakili o'laroq, iqtisod sohasida mehnat qildi, paxta tayyorlov tizimida mas'ul vazifalarni bajardi, partiya safiga qabul qilinib, uzoq yillar davlat muassasalarida ishladi.

Afsuski, arxiv hujjatlari uning qariyb o'n besh yillik ana shu mehnat faoliyatini batafsil yorit-maydi. Ma'lumotlar uzuq-yuluq yetib kelgan, xolos. 1937-yilga kelib, tergovchilarni Ali Rasulov-niing iqtisodchi sifatidagi xizmati, davlat idoralarida o'ttirgan tajribasi yoki bajargan ishlari qiziqitirmay qo'yg'an edi. Chunki bu paytda hech kim uning ko'ksiga mukofot taqishni o'ylamayotgandi, aksincha, yuragi qo'rg'oshinli "siylov"ga nishon bo'lib turgandi.

1937-yil 5-avgust kuni Ali Rasulov hibsga olinishi bilanoq tergov mutlaqo boshqa yo'singa o'tadi. Oradan bir kun o'tib tuzilgan

navbatdagi bayonnomada Ali Ra-sulovdan sovet hokimiyatiga qarshi millatchilik faoliyati haqida ko'rsatma olingani qayd etiladi. Keyingi oylarda o'tkazilgan so'roqlarda esa Turkistonning turli shaharlaridagi o'nlab mashhur shaxslar nomi tilga olinadi. Munavvar qori Abdu-rashidxonov, Sa'dullaxo'ja Tursun-xo'jayev, Fayzulla Xo'jayev, Muslim-jon Aminov va boshqalarning nomlari bitta ish jildi sahifalarida yonma-yon paydo bo'ladi.

Arxivda saqlangan keyingi so'roq bayonnomalari tergovning asl yo'na-lishini yanada yaqqol ko'rsatadi. Endi savollar Ali Rasulovning shaxsiy faoliyatidan ancha kengayib, "Ittihad va taraqqiy" tashkilotining maq-sad va vazifalarini "tasdiqlatish"ga qaratiladi. Bayonnomalarda tash-kilot Turkistonni sovet ittifoqidan ajratish, xorijiy davlatlar ko'magida mustaqil davlat tuzishni rejalashti-r-gani haqida ko'rsatmalar qayd etiladi. Shundan so'ng tergovchilar Turkiston muxtoriyati, Osipov qo'z-g'oloni, "boshmachilik" harakati, ingliz razvedkasi vakili polkovnik Beyli razn aloqalar, Afg'oniston orqali qurol keltirish, Turkiyadan yuborilgan vakillar hamda Moskva-da xorij muxbirlari bilan o'tkazilgan muloqotlarga hamda bo'lgan voqealarni bir-biriga bog'lashga urinadi. Bu jarayonda Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Sa'dullaxo'ja Tursun-

xo'jayev, Fayzulla Xo'jayev kabi o'nlab nomlar bitta "jinoiy zanjir" halqalari sifatida talqin qilinadi. Shu asosda shakllantirilgan ayblov xulosasi sudga taqdim etiladi. Bayonnomalardagi iddaolar sud muhokamasida ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

1938-yil 4-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi Ali Rasulovni otuv jazosiga hukm qildi. Hukm o'sha kuniyiq ijro etildi. Shu tariqa, Turkistonning bir necha siyosiy davrlarini boshdan kechirgan yana bir inson nomi qatag'on qurbonlarining minglab ish jildlari orasida qolib ketdi.

Yana bir ma'lumotda Ali Rasulov-niing rafiqasi Zinaida Aleksandrovna uy bekasi, o'g'li llyos Rasulov Samarqand tibbiyot institutida o'qi-tuvchi ekani keltirilgan.

Ali Rasulov ham til bilgani, ham iqtisodni chuqur anglagani uchun uning qo'lida go'yoki ikki damli qilich bo'lmish zulfiqor yaraqlab turardi. Ana shu narsa bosqinchilarni cho'chitdi. Bilimni tortib olishning iloji yo'qligi uchun uning sohibiga pand berdilar. Afsuski, jaholat avj olgan tuzum va zamonda inson hayotining pista po'chog'icha qadri yo'q edi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Zokirjon Nasriddinov – 1904-yili Shahri-xonda tavallud topgan. Ma'lum vaqt savdo-garlik bilan shug'ullangan. Milliy-ozodlik harakati tashkiloti a'zosi bo'lgach, faoliyat olib borayotgan ishi – qishloq soveti raisligi-dan bo'shatilgan.

Aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda, SSSR-dagi ocharchilik to'g'risida mish-mish tarqat-ganlikda, qishloq xo'jaligida zararkunandalik qilganlikda, paxta terimi bo'yicha sabotaj qilib, 1937-yilgi paxta rejasini barbod etganlikda ayblanib, O'zSSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 7-fevraldagi yig'ilishi qaroriga ko'ra otuvga hukm qilingan.

Nozirjon Rasulov – 1894-yili Andijon uyezdi Asaka rayonida tug'ilgan. Hujjatlarga ko'ra, u "Sho'royi Islom" tashkiloti a'zosi bo'lgan. Aholi orasida muntazam ravishda mag'lubiyatchilik kayfiyatidagi targ'ibot olib borganlikda ayblangan. O'zSSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandiga asosan O'zSSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "uchligi"ning 1937-yil 8-dekabrda yig'ilishi qarori bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 2-dekabrda hisoblangan.

G'ulomxon Akramxonov – 1887-yili Namangan shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lgan. 1918-yili milliy ozodlik harakatidagi faoliyati uchun 3 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Unga aholi orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy targ'ibot olib borgani hamda ig'vo, bo'hton, mish-mish tarqatish bilan mashg'ul bo'lgani, ruslar zulmidan ozod bo'lish maqsadida Sharq xalqlarini yagona milliy tashkilotga birlashtirishga chaqirgani, sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash olib borishga da'vat etgani kabi ko'plab ayblovlar qo'yilgan. Mulkilari musodara etilib, o'zi otuvga hukm qilingan.

Saidxon Shodmonov – 1903-yil Marg'i-lon shahrida tug'ilgan. 1922-yildan Marg'ilon shahar komsomol komiteti kotibi vazifasida ishlagan. U Qo'qon shahrida partiya-sovet oliy maktabini tugatgan. Hujjatlarda qayd etilishicha, 1925-yil tashkil etilgan "Haqiqat" tashkiloti a'zosi, Marg'ilon, Shahrixon, Asaka, Bulung'ur, Bag'dod, Andijon shahar-larida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilgan. 1935–1937-yillarda Qoradaryo suv tizimi boshqarmasi boshlig'i bo'lgach, atrofta aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, Akmal Ikromov va Fayzulla Xo'jayev-niing "dumi" bo'lganlikda ayblanib, 1937-yil 13-sentyabrda 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. Jazoni o'tab, 1947-yilda qaytib kelgan. Ammo 1949-yilda yana Krasnoyarsk o'lkasiga surgun qilingan.

G'ulom Akromov – 1903-yili Toshkent shahri Devonbegi mahallasida tug'ilgan. 1912–1915-yillari eski va yangi usuldagi jadid maktablarida o'qigan. 1918-yildan matbaachilar kasaba uyushmasi a'zosi bo'lgan. Toshkentda bosmaxonada harf teruvchi, FZU (Fabrika-zavod bilim yurti) mudiri, FZU kasaba uyushmasi raisi, matbaachilar kasaba uyushmasi Markaziy komiteti raisi o'rinbosari, Toshkent Eski shahar bosmaxona partiya yacheykasi kotibi, Toshkent okrug xalq maorifi bo'limi mudiri, Toshkent rayon partiya komitetining mas'ul kotibi, Samarqandda O'zbekiston kasaba uyushmasi tashkiliy bo'limi mudiri, Jalolquduq rayon partiya komitetining mas'ul kotibi, Norin rayon partiya komitetining mas'ul kotibi lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan.

Toshkent shahrida bo'lib o'tgan SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 14-oktyabrda yig'ilishida G'ulom Akromov otuvga hukm etiladi. Jazo o'sha kuni ijro qilingan.


Baxtiyor ALIMOV,
Jasurbek IMINOV,
Azizbek MAHKAMOV,
ANDU tuzilmasidagi
Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi
ilmiy xodimlari

(Davomi kelgusi sonda).

Boshlanishi 1-sahifada.

O'z davrida qurultoyga ko'plab turkiy davlatlar jiddiy tayyorgarlik ko'rgan. Jumladan, samarqandlik jadid munaqqidi Vadud Mahmud anjuman o'tkazilishidan bir necha oy avval "Turkiyot qurultoyi" nomli maqolasini e'lon qiladi.

Darhaqiqat, yer yuzidagi millatlar moddiy ne'matlar ishlab chiqarish



Vadud MAHMUD

Turkiyot, turkuliji, turkulo'giyo ta'birlarining barchasi bir ma'no ifoda etib, "turkni tanimoq ilmi" demakdir.

Hayot va kurash maydonig'a otulg'on millatlar, bu kungi kun kechirishlarini intizomg'a qo'yish uchun o'tgan kunlarini ko'zdan kechirishlari va o'zlarining kim va qanday bir shaxsiyatga molik bo'lg'onliqlarini aniqlashlari zarur ko'ruladir, bu majburiyat, ayniqsa, turli qavmlarning bir-birlari bilan bo'laturg'on madaniy to'qunushlari chog'ida jiddiy bir suratda seziladi.

Moddiy madaniyatda (sivilizatsiyada) bir qatorda bo'lg'on, ya'ni bir bolg'a-bir o'roq ishlatadig'on xalq ma'naviy madaniyatda, ya'ni harsda (kulturada) bir-birlaridan tog'lar va dengizlarcha ayirma ko'rsatadirlar. Hars: ruhiy faoliyatning natijalari bo'lg'onidan go'zal san'atning butun bo'lumlari odat, axloq, din, mazhab kabi ruhiy muassasalarda bu ayirmalar ochiq ko'runadir. Shuning uchundirki, me'morda olmon, italyon, fransuz, hind, arab kabi tasniflar ko'ramiz va eshitamiz. Moddiy madaniyat (sivilizatsiya)da qancha umumiylik (obyektivnost) ko'rsak, harsda (kulturada) aksincha, shuncha xususiylik (subyektivnost) ko'ramiz.

Turkiston glassiq (tasnifiya) musiqiysining asosi arab va eronnik bo'lsa ham, Movaroun-nahrning ayri xususiyatlari ochiqdir. Arabning chalaturg'on "Iroqi" bilan Eronning va bizniki boshqa-boshqadir, bir-birovidan tanilmasliq darajada ayridir.

Me'morimiz arab, eron, hind va chin ta'siri ostida boshlang'on bo'lsa ham, bu kun isbot etilgandirki, Movarounnahr me'morisi o'zichadir, o'zinikidir, boshqadir. She'rda ham shudir, shimoldan boshlab janubga qarab qancha ensangiz mavzuda chiroylilik, boylik va kenglik ko'rasiz.

TURKIYOT QURULTOYI

Millatlar mana shu xususiyatlarga ega bo'lg'on to'dalar bo'lmasalar, yasa-ma chegaralar, zo'raki unvonlarning aha-miyatlari yo'qdir.

Shu ayri xususiyatlarga molik bo'lg'on millatlar xususiyatlarini qancha sof saqlaya olsalar, shuncha kuchli milliyat ko'rsata olurlar va kuchli bir millat atalurlar.

Qitaylar va hindlar siyosiy va madaniy jihatdan qancha mahkum bo'lsalar bo'lsunlar, milliy sajiyalari kuchli millatlardandir. Ularning butun san'atlarida, yashayishlarida, dinlarida o'zlarichalik xususiyat bor. Ruslarda esa bu xususiyat nisbatan zaifdir. To'qunush, ya'ni madaniy munosabatlar chog'ida ba'zi millatlarning yutushlari (tamsil), yutulushlari (tamassul) mana shu bir harsning boshqasi ustiga g'alabasi demakdir.

“Biz bu boradagi hamkorlik istiqbollarini yanada kengaytirish maqsadida birinchi Turkologiya qurultoyining 100 yilligi munosabati bilan turkiy davlatlarning yetakchi ilmiy markazlari ishtirokida “Turkiy dunyo ma’rifatparvarlari” xalqaro ilmiy-ensiklopedik loyihasini yaratish hamda jadidlik harakati namoyandalari barcha asarlari va arxiv hujjatlarining yagona raqamli kutubxonasini shakllantirishni taklif qilamiz. Ishonchim komil, ushbu xalqaro kongress turkologiya sohasidagi ilmiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, samarali tadqiqotlar va qo'shma loyihalarni amalga oshirish hamda turkiy xalqlar o'rtasida do'stlik va birdamlikni yanada mustahkamlash yo'lida muhim tarixiy qadam bo'ladi”.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat MIRZIYOEVning
Birinchi Turkologiya qurultoyining
100 yilligiga bag'ishlangan xalqaro kongress qatnashchilariga tabrigidan

Mana shu harsiy yutulish, yutulmasliq jihatlaridandirki, bu kungi millatlar o'zlarining

muhitda yashovchi ikki millatning musiqa asboblari ham, kuy-ohanglari ham farqlanadi.

Har bir millat madaniyati, san'atidagi o'ziga xoslik qadim-qadim zamonlar-ga borib bog'lanadi. Ularning asrdan asrga, avloddan avlodga meros bo'lib o'tishi o'sha qavm tabiatidagi xususiyatlarga ham taalluqlidir. Mabodo, millat ruhan, tabiatan ojiz bo'lsa, boshqa millatlardan tez

ta'sirlanadi, boshqa millatning mada-niy olamiga singib ketadi, asliyatini yo'qotadi. Ma'naviy olamda millat o'z asliyatini saqlash ehtiyoji “g'arbiyot”, “sharqiyot” singari tushunchalarni yuzaga chiqaradi.

Muhtaram o'quvchilarga Vadud Mahmudning “Maorif va o'qituvchi” jurnalining 1925-yil 11-sonida e'lon qilingan “Turkiyot qurultoyi” maqolasini taqdim etamiz.

ruhiy xususiyatlarini tasbit etmak (*mustah-kamlamoq* – **B.K**) choralariga sarilig'onlar va buning natijasida sharqiyot, g'arbiyot, turkiyot, rusiyot kabi ilmlar maydong'a chiqq'on.

Inglizlarning inglizliqni saqlash uchun mutaassibona qiynalishlari, olmonlarning olmonliq uchun asabiyl berilishlari bu kungacha bo'lg'on holning ochiq misollariandir.

Bu ilmlar qurulishi va maydong'a kelishi-niing sababi yolg'uz bu emasdir. Umuman, har millatning o'zini tanimoq istagini va buning kundalik hayotdagi amaliy ahamiyatini taqdir etmak ham jiddiy sotiqa (*sabab* – **B.K**)lar-dandir.

Turkiyot ilmi g'arbda va bizda boshqa-boshqa ehtiyojlar orqasida tug'di.

G'arb millatlari, ilgma xidmat uchun – balki bizdan istifoda etmak va bizni yaxshi-roq-omonroq idora etmak uchun – ish boshladilar.

Biz esak o'zimizning kimligimizni bilmak va boshqalar orasida mavqeyimizni bilmak uchun kirishdik; bizning bu ishimiz ikki jihatlidir: bir yoqdan bilimga xidmatdir, ikkinchi yoqdan o'zimizni bilmakdir.

Har ilmni ilgari surish uchun mutaxassis-larining bir-birovlari bilan munosabatda bo'lishlari, xabarlashib turishlari ko'b yordam beradir; bu kungi turkshunoslar bir-birovlari-niing ishlari bilan tanishmoq va kelgusi ishlari-niing planlarini chizmak istaganlaridan, birinchi o'laroq bir turkiyot qurultoyi chaqirishg'a qaror berilgandir.

Qurultoyning bu kun chaqirilishining yana ayricha bir maziyati, turk qavmlarining g'arb madaniy oilasiga kira boshlag'on shu choqlarida yechish kerak bo'lg'on muhim masalalarning o'z ahlari orasida muzokaraga qo'yilishidir.

Bu – turkiyot qurultoyining uchunchi ahamiyatli tomonidir.

Unda ko'rutlaturg'on masalalar tuban-dagichadir:

1. Turkiyotning hozirgi holi va kelgusi o'sish yo'llari;
2. Turk tillari va shevalarining tasnifi (klassifikatsiyasi);
3. Turk tili va shevalarining boshlanmasi, tarixi va o'sishi;

Bahodir KARIM tayyorladi.



IBRAT

Tun haqida yigirmata she'r

Gazetamizning o'tgan sonida "Men jilg'aman, daryo bo'lib to'lgim keladi" nomli maqola e'lon qilinganidan xabaringiz bor. Bugungi kunda faol ijod qilib kelayotgan yoshlarimiz haqida so'z yuritilgan maqolada hozir sarlavha qilib olganimiz – "Tun haqida yigirmata she'r" nomli kichik lavha bor edi.

Unda yosh shoir Humoyun Fattohning tashabbusi bilan "Tun. Qaydadir nimadir charxlanayotir..." satrini davom ettirib she'r yozish so'ralgani va 20 nafar yosh shoirdan she'r olinib, internetga joylangani haqida ma'lumot berilgan edi. Endi "to'n"ni egasiga beraylik – maqola gazetada chiqqach, Humoyundan "bu satrni davom ettirish g'oyasi ustoz Aziz Saidga tegishli, men ulashganlardan biriman, xolos", degan bildirish keldi. "Bungayam to't yil bo'ldi. Qay tarzda e'lon qilsam ekan, deb saqlab kelgan ushbu she'rni e'tiboringizga havola qilyapman", deya o'z internet kanaliga qo'ygan ekan ustoz. Satrni davom ettirganlarning aksari yosh shoirimizning teng-to'shlari bo'lgani uchunmi, tashabbusni beshubha Humoyunga nisbat beribmiz.

Tashabbus so'ngida "O'qing! Fikr bildiring", degan da'vat bor. Keling, o'qiylik, fikrimizni aytaylik, toki ijodkorlarni faollikka chorlaydigan bunday xayrli tashabbuslar qanot yozsin, bardavom bo'lsin.

"Tun. Qaydadir nimadir charxlanayotir..." Xo'sh, qayda u, nima u?

Jontemir: "Bo'g'ilib chiqmoqda bu sas ichingdan – Tun. Vijdon yurakni jim charxlayotir", deb yozsa, Feruza Xayrullayeva satr mazmunida dalada mehnat qilayotgan ayol tasvirini ko'radi: "Choyini qaynatar javzo quyoshi, Sabotin



damlaydi "oh"iga qo'shib, Shirin tuyiladi sabrning oshi". Muhammadsiddiq talqiniga ko'ra: "Qilichin o'tkirlab, bir kenja botir Jangga ketayotir minib G'irotin". Shahriyor fikrini pichoqday qayrasa, Tillaniso yana qaydadir nimadir yonayotganini, tushlar ko'zlariga nur elayotganini ko'radi. Nozima Habibullayevaning ta'biricha, "nimadir" emas, "kimdir" charxlanmoqda. "Charxi dun balki charxlar toqatlarimni", deydi Botir Ergash. Dilora Holiqovada bu "Siniq, egik, nimjon bir tiriklik" bo'lsa, Jaloliddin Saidovda "Anov millitlagan yulduzmas asli, O'sha charx sachratgan uchqunlariydi".

Navoiylik Alisher satrni nekbinlik bilan davom ettiradi: "Yorishib keladi oftoabning yuzi, Bir millat, bitta el, xalqlanayotir. Kun kelib damini sezasan olam, Qaydadir nimadir charxlanayotir". Nargiza Odinayeva ta'rifida "Bu takror ohanglar ishqning qobig'i" bo'lsa, Rahmat Bobojon she'rida bu "charxlangan ruh"dir. Humoyunning tasavvurida "Zulumotga qarshi porlagan yulduzlar" jonlansa, Mansur Nazarov charxlanayotgan narsa "Ichimda mavhum xavotir", deb yozadi.

Nazmiy bellashuvga qoraqalpoq shoirlari ham qo'shiladi. Abdiraxman Qoilybayevning she'riy tizmalarini: "Tun. Bir yerda bir narsa charxlanayotir, Tun, har yerda bir narsa charxlanayotir. Tun,

bir yerda har narsa charxlanayotir, Har biri o'zicha chiqarar hukm", deya o'girib o'qishimiz mumkin. Aygul Qosimbetova charxlanayotgan narsani sog'inch deb ataydi.

Samarqand tarixi bilimdoni Sitorabonu Shomurodova: "Va yo qilichmikan, bahodir Jang qilarmi Vatan yo'lida. Ne bo'lsa ham, bu tig' tushmasin Xoin kimsalarning qo'liga", deya bong uradi. Shahrizod Shodiyev: "Tongni kutayotir yuragi borlar", deb yozsa, Gulzoda O'rinboeva: "Nelar charxlanmoqda anglolmadim hech, Demak, yashayapman!" degan qiziq xulosaga keladi. "Ulug' bir jang uchun tayyorlaganday Soy charxlayveradi har nafas toshni" – bu Akbar Jahonov she'ridan parcha. Erkin Hojimuhammad: "Har seni o'ylasam dilim charxlanib, Yurak isib ketar haddan tashqari", deya holatini bayon etadi va "Yaxshiyam tushlar bor seni ko'rgani", deya xulosalaydi.

She'rilar to'rtarmoqda e'lon qilingach, kuzatuvchilarda ham fikr uyg'otgani tashabbusning boshqalarga ilhom ulasha olganidan dalolat, albatta. Izohlarda Zuhridin: "Sabrning tikonli gulxonasida Kimningdir bardoshi charxlanayotir", deya she'r bitsa, yana bir shoirimiz Abdul Boqiy: "Qaydadir fikrlar charxlanayotir" ganiga urg'u beradi.

Birgina yaxshi satr yaxshi she'rlarning tug'ilishiga bois bo'lishi mumkinligini ushbu ijodiy musobaqa misolida ko'rish mumkin. Demak, zamonaviy adabiyotimizda o'z ovozig'a, so'z aytish uslubiga ega bo'lgan bir ustoz shoirimiz jimgina o'z ishini qilayotir: yoshlarning iste'dodini qayrayotir, so'zlarini o'tkirlayotir – adabiyot charxlanayotir.

Ikrom ISKANDAR



Natijani emas, ularning ruhiyatini, kechinmalarini tasavvur qildikmi? Turli darajadagi to'qnashuvlarda ularning joniga jonimiz achidimi?

Ha, biz ko'zlangan manziling ilk bekatlaridan ortga qaytdik. Lekin qaytganda ham yomon qaytmadik. Eldor Shomurodovning Kongo Demokratik Respublikasi darvozasiga urgan goli "Hyundai Goal of the Tournament" ovoz berish jarayonining birinchi bosqichi yakunlariga ko'ra, guruh bosqichidagi eng yaxshi gol deb topildi. Abbosbek Fayzullayev XXI asrda jahon chempionatlarida bosh bilan gol urgan eng past bo'yli futbolchi sifatida qayd etildi. Shuningdek, u O'zbekistonning mundialdagi birinchi goli muallifi sifatida ham o'z nomini tarixga muhrladi. O'n sakkiz yoshli Behruz Karimov va yana bir necha yosh futbolchilarimizga Yevropa 5 TOP jamoalarining nazari tushishiga shu ishtirok sabab bo'lmadimi? Demak, ilk ishtirok hozirdanoq meva bera boshladi.

Bo'lar elning bolalari bir-birin botirim derkan. Biz ham ortiqcha hissiyotlarga berilmay, holatga real baho beraylik. O'yinlarni tahlil qilaylik, lekin tahqirlamaylik.

"Toy qoqilib, ot bo'lguvchi yaylovdir bu...", degan Muhammad Yusuf. Hali oldinda qancha Jahon chempionatlari, Osiyo kubogi bahslari turibdi. Ana shu o'yinlarda ham xalq sifatida futbolchilarimizni qo'llab-quvvatlaymiz.

Mayli, qoqilsin, mag'lubiyat alamini tortsin. Muhimi: milliy futbolda milliy jamoa shakllandi, endi uni rivojlantirib, baland marralarni zabt etishda hech bo'lmasa olqishlar bilan ko'maklashaylik.

Zikrilla MUHAMMAD

Facebook



SUD OCHERKI

TIRIK GULXAN

Kuzning sovuq shabadasini Vobkent ko'chalarida izg'ib, daraxtlarning so'nggi za'faron yaproqlarini ayovsiz yulqirdi. Osmon xuddi bugun shu yerda yakun topadigan ayanchli qismat-ustiga og'ir bulutlardan kafan yoppandi. Jinoyat ishlari bo'yicha Buxoro viloyat sudi binosi atrofida yuz-ko'zida vahima, go'yo motam izdihomiga to'p-langandek pichirlab so'z-lashardi.

Panjara ortida, xuddi hayot bilan aloqasini butkul uzgandek boshini quyi solib o'tirgan Adiz Rahimovning nigohlarida na najot uchqunlari, na ishonch ifodasi ko'rinardi. Zalning qarama-qarshi burchagida esa chuqur ajinlarida bir umrlik isyon qotib qolgan mushtipar ona – Fotima aya mungli termilib o'tirardi. Uning ko'zlaridan sizib chiqayotgan yoshlar o'g'lining mudhish qilmishi va kelinining fojiasidan kuygan bag'rini sovuta olmas, aksincha, battar dog'laridi.

Hammasi katta orzu-umidlar bilan boshlangan edi. Adiz va Zarifa Qodirova oila qurishganida, xonadonda dunyoga kelgan shiringina farzandlar – Azizbek va Lazizbek oilaning chin quvonchiga aylangandi. Ammo vaqt o'tishi bilan ro'zg'or tashvishlari, yetish-movchiliklar va ularning ortidan kelib chiqqan doimiy mashmashalar oradagi mehr rishtalarini asta-sekin yemirib bordi. Zarifa tuman obodonlashtirish boshqarmasida og'ir va zahmatli mehnat bilan shug'ullanar, oilasiga harna madad deb tinim bilmay ishlardi.

Adiz o'zining "xomcho'ti" xomligidan boshlangan muammolari – kredit va qarz balosi, zo'raki boyvachchalik kasalligi, ichkilik, lafzsiqlik ortidan kelgan yo'qchilik alamini xotinidan ola boshladi. Avval o'shqirishdan boshlangan haqorat bora-bora qo'l ko'tarish, xo'rash kabi g'ayriinsoniy tubanlikka borib yetdi. Zarifa o'qimishli emamsi, o'z huquqini yaxshi bilar, ammo "ayol kishi erning uyidan faqat oq kafanda chiqishi kerak", "or-nomus hammasidan baland", "odamlar nima deydi?" degan jamiyatning yozilmagan, ayovsiz qonunlari bois tishiga tishini qo'yib, hammasiga chidadi. Oilasini asrash uchun, go'daklari tirik yetim bo'lmasligi uchun ichkaridagi gapni tashqariga chiqarmay, eriga insof, o'ziga bardosh tilab kun ko'rdi. Lekin el og'ziga elak tutib bo'lardimi? Juvonning momataloq yuz-ko'zlarini qo'ni-qo'shni nazaridan parang-ro'mol berkitolarmidi? Taomilga ko'ra, mahalla mas'ullari va profilaktika inspektori kelib, bir necha marta mushtumzo'r erga tushuntirish ishlari olib bordi. Afsuski, bu taxlit "chilyosin"lar Adizning bir qahriga o'n qahr qo'shdi, bir shapalog'i o'n shapaloqqa aylandi.

O'sha mash'um va dim iyun tongi... Xonadonda odatdagidek kutilmaganda arzimasa bahona bilan katta janjal chiqdi. Haqorat va kamsitishlarga miq etmay

yuzini to'sib o'tirgan xotinning shu shikasta holati birdan Adizni quturtirib yubordi: "Ha, nega javob qilmaysan? Seni gaping menga falon, demoqchimisani?" deb, o'z gapidan o'zi kuchlanib, kamarini sug'urgancha Zarifani beayov savalay ketdi. Uning ko'zlarini olakula, jazavaga tushgan qiyofasida telbalik unsurlari ko'rinardi. Zarifa og'riq zabtidan qalqib-qalqib to'lg'ansa-da, ikki xayoli bir nuqtada – "Ishqilib, yotoqda uxlab yotgan bolalarim eshitib qolib, uyquasi buzilmasin. Dada-sini vajohatini ko'rib cho'chimasin, qo'rqmasin, yomon ko'rib qolmasin". Baxayr, charchagan zo'ravon nihoyat boloxonador so'kindi-yu, eshikni tepib ochib, ko'chaga chiqib ketdi.



Zarifa yakandozda yuhtuban yotgancha uzoq unsiz yig'ladi. Nihoyat, bor irodasi va kuchini yig'ib, ko'zyoshlarini artdi, yuzidagi ko'kargan joylarga upa-elik surib, yashirgan bo'ldi. Ishga ketishdan oldin haliyam pishillab uxlab yotgan bolalarini uyg'otib, ko'zida yosh bilan yuvib-taradi. Xayrlashuv chog'i ularning peshonasidan o'pdi va bag'riga bosdi: "Bog'chadan kelishingizga pitssa pishirib qo'yaman, maylimi? Kechqurun bayram qilamiz", deb va'da berdi zo'rg'a jilmayib. Bolalar quvonch bilan bog'chaga yugurishdi. Bu ularning so'nggi diydori ekanini qayerdan ham bilishsin...

Adiz bolalarini mahalladagi bog'chaga olib chiqib ketdi. Ichida bo'g'ilgan g'azab vulqoni ushbu lahzalarda uning ongini butkul zaharlab bo'lgandi. Ishxonasiga bordi-yu har xil vasvasa unga tinchlik bermadi. Ishini tugatmasdan uyi tomon shoshdi, hovliga kirar-kir-mas ko'zi yelimidishdagi benzinga tushdi...

Hech narsadan bexabar Zarifa erining yuziga qarab ulgurmasdan, ustidan muzdek, qo'lansa suyuqlik sepildi. Keyin... chaqindek chaqilgan gugurtdan lahzada alamazonga aylangan olov qur-

shovida qolgan Zarifaning achchiq chinqirig'i butun qishloqni momaqaldiroqdek larzaga keltirdi. Ayol atigi bir necha soniya ichida tirik olovga aylandi. Qora tutun va Zarifaning faryodini eshitib, ovsini Sabinaga qo'shnilar ergashib, yugurib kelishdi. Ular kelinni qutqarish, olovni o'chirish uchun o'zlarini o'tga urib, jon-jahdlari bilan harakat qilishdi. Biroq yovuz alanga o'z ishini qilib bo'lgandi.

Hodisa joyiga yetib kelgan tergovchilar va kriminalistlar xonani ko'zdan kechirisharkan, har bir burchak o'sha dahshatli voqeadan so'zlaridi. Devorlardagi kuyib ketgan suratlar, alangadan erib ketgan polietilen idish qoldiqlari va yerdagi qoraygan qon izlari tergov bayonnomasiga bitta-bitta muhrlandi. Eng yurakni ezadigan narsa – stol ustida turgan, Zarifa bolalariga pishirmoqchi bo'lgan yegulik uchun tayyorlab qo'yilgan xamir va sabzavotlarning kuygan qoldiqlari edi. Oila qo'rg'onidan faqat mana shu kuygan dalillargina qolgandi.

Mana, bugun sud zalida ushbu fojiga yakuniy va adolatli nuqta qo'yilmoqda. Sud hay'ati raisi Adizni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi "j" bandi (o'ta shafqatsizlik bilan qasddan odam o'ldirish) bo'yicha aybdor deb topib, 18 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish haqidagi hukmni o'qib eshittirdi. Zalda qonun-ning adolatli so'zi yangrarkan, orqa qatordan to'ng'ich o'g'il Azizbekning yurakni tilka-pora qiluvchi yig'isi eshittildi.

Bolakay qarindoshlarining qo'li-dan yulqinib, panjara ortida turgan otasi tomon talpindi. U temir panjarani silkitib, otasiga ba-qirdi: "Dada, aya qani? Ayamni sog'indim! Siz qayga ketyapsiz?" deb chinqirdi. U panjara orasidan barmoqlarini uzatib, otasining kishanlangan qo'llarini tutishga urindi: "Dadajon... Bizni tashlab ketmang, dadajon!" deb bo'zladi.

Bu murg'ak iztirob zalda o'tirgan jamoaning, sudya va prokuror-larning ham ko'nglini vayron qilib, ko'zlarini yoshga to'ldirdi.

Bir johil erning kaltabin qilmishi sabab:


gulday bir oila kuyib, kultepa bo'ldi;

gulday bir ayolning baxti kul bo'lib, ko'klarga uchdi;

bir juft qorako'zning kelajagini dud qoplad, murg'ak yurakchalar bir umr qo'rantaga aylandi;

bir bandaning u dunyo-bu dunyo-siga o't ketdi, oxirati kuydi...

Nurjahonbegim RASHIDOVA,
"Sud jurnalistikasi"
kursi tinglovchisi.



“ Ayolni azobga tashlagan erkak baxtli bo'lolmas.

Viktor GYUGO



Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Adadi – 18 471

Shundan:

Kirill yozuvida – 6 882

Lotin yozuvida – 11 589

Media kuzatuvchilar – 85 424

Buyurtma: G – 740

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov

Nigora Tosheva



Manziliimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgz@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON

YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT

VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI

QO'LLAB-QUVVATLASH

VA RIVOJLANTIRISH

JAMOAT FONDI



“SHAHIDLAR XOTIRASI”

JAMOAT FONDI